

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshtagani

2025-yil 9-may  
№19 (3133)

www.mv-vatanparvar.uz

## VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN QALQON BO'LGAN O'G'LONLAR

(MUSTAQILLIK YILLARIDA HALOK BO'LGAN  
VATAN O'G'LONLARI XOTIRASIGA)

Mustaqillik yillarda qurbon bo'lgan o'g'londalar,  
"Qurban bo'lgan" degim kelmas, qo'rg'on bo'lgan o'g'londalar.  
El tinchi-yu omonligi, erk-saodat yo'lida,  
Vatan uchun, millat uchun qalqon bo'lgan o'g'londalar.

Gar Vatanga aylanmasa, unday ko'ngil ko'ngilmas,  
"Halok bo'lgan" degan so'zga ko'ngillar hech ko'nikmas.  
"Halok bo'lgan" degim kelmas, bu o'g'londalar o'lganmas,  
Shudring bo'lgan, shamol bo'lgan, osmon bo'lgan o'g'londalar.

Har bolasi hushyor yurtda qoraymas hech quyoshlar,  
Yuzlariga shom pardasin tortmayin tog'-u toshlar.  
Ota uyda laganlarda qoldi suzilgan oshlar,  
Nasibasi tiriklarga armon bo'lgan o'g'londalar.

Jaholat-u qabohatga tik bordingiz berib jon,  
Nomizingizni yod ayilar har ko'cha, har bir xiyobon.  
Saharlari samolardan mo'litraysiz nigoron,  
Osmonlarda zor-intizor Cho'lpon bo'lgan o'g'londalar.

Birovlari chimildiqqa kirib ham ulgurmagan,  
Birovlari yor ko'ziga to'yib ham termilmagan.  
Birovlari farzand ko'rib, o'gil to'ylar qilmagan,  
O'z yurtiga qosh-u ko'z-u mijon bo'lgan o'g'londalar.

Birovingiz - Jaloliddin, Bobursiz birovingiz,  
Tiriklikdan so'rolmasdan hali dil so'rovningiz.  
Burch-sadoqat sarhadida joningiz - garovingiz,  
Burch yo'lida jism-u joni o'lpon bo'lgan o'g'londalar.

Siz barhayot o'g'lonsiz, siz hech qachon o'lмаган,  
O'n sakkizga, yigirmaga, o'ttizga ham to'lмаган,  
Bu hayotda o'n gulidan bir guli ham so'lмаган,  
Nom-u yodi mangu bog'-u bo'ston bo'lgan o'g'londalar.

Ul "Ikkinchiji jahon..." degan urushda nolam ketgan,  
Mening besh yuz ming lolam-u besh yuz ming bolam ketgan.  
Har bir ketgan bolam bilan bir buyuk olam ketgan,  
Qo'rg'oshinazor ko'ksi ro'yi jahon bo'lgan o'g'londalar.

Jonim bolam, bu mening ham farzimdir, ham qarzimdir.  
Ayni paytda farzandlarga maktubim, dil arzimdir.  
Vatan mangu maktabimdir, mening mangu darsimdir,  
Umri ibrat maktabida irfon bo'lgan o'g'londalar.

Sharaf bo'lsin shunday umr, shunday fido har jonga,  
Vatan nomi burkangaydir abadiy sharaf-shonga.  
She'rlar aystsam nomingizdan Oliy Bosh Qo'mondonga,  
Matonati ming bir she'r-u doston bo'lgan o'g'londalar.

Xotiraning rangi moviy - zangor osmon ranglidir,  
Vatan uchun jon berganlar qadri doim shonlidir.  
Ona Vatan bayrog'ida oy, yulduzlar mangudir,  
Mana shunday porloq davron bo'lgan o'g'londalar.

Sirojiddin SAYYID,  
O'zbekiston xalq shoiri  
2025.05.05

9-may

XOTIRA VA  
QADRASH KUNI

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVII-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv\_vatanparvar\_uz



vatanparvar-bt@mail.uz



facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

# XALQIMIZNING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI CHINAKAM MARDLIK VA QAHRAMONLIK SOLNOMASIDIR

**Ikkinci jahon urushining tugaganiga 80 yil bo'ldi. Shuncha vaqt o'tsa-da, uning tarixi, kulfat va musibatlari unutilmaydi. Aksincha, urushning mudhish oqibatlari, tinchlik-osoyshtalik qadrini yodga soladi. 9-may – Xotira va qadrlash kuni zamirida ana shunday mohiyat mujassam.**

Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu sana munosabati bilan "G'alaba bog'i"ga tashrif buyurib, xotira marosimida ishtirok etdi.

Bog' bo'ylab mungli kuy taraladi. Bu yerdag'i har bir yodgorlik, timsol va bitiklar mudhish urush haqiqatlarini ifoda etadi, xalqimizning g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini urg'ulaydi. Bog' bugungidek bayram kunlarida ayniqla gavjum bo'ladi.

So'nggi yillarda shakllangan an'anaga muvofiq, davlatimiz rahbari "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydi. Bu muazzam obida urushda xalqimiz chekkan azob-uqubatlar, matonat va yo'qotishlarning ifodasıdir.

Hujjatlarning dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo'lgan, 158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortig'i konslagerlarda mislsiz qyinoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytgan.

O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani ularning jasoratidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylangan, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', kiyim va oziq-ovqatlar yetkazib turilgan. G'oyat og'ir sharoitga qaramay, xalqimiz urush

hududlaridan ko'chirib kelingan 1 million 500 mingga yaqin insonni, jumladan ota-onasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolani o'z bag'riga olib, mehr ko'rsatgan.

*- Bular chinakam mardlik va qaqrmonlik solnomasidir. Bunday murakkab va shonli g'alabaga munosib hissa qo'shgan matonatli xalqimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bu qaqrmonliklarni hech qachon unutmasligimiz, yoshlarimizga yetkazishimiz kerak. Ayniqla, hozirgi tahlikali zamonda buning ahamiyati nihoyatda katta. Hammamiz Vatan himoyasiga har kuni tayyor bo'lishimiz kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-fevraldag'i qaroriga muvofiq, Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni munosib nishonlanmoqda. Bugungi avlodlar tinchligi, mamlakatimiz barqarorligi uchun jonfido qilgan insonlar xotirasini hurmat bilan yodga olinmoqda. Ayni vaqtida hayot bo'lgan mehnat faxriylari va keksalarga ehtirom ko'rsatilmoqda.

Tadbirda O'zbekiston Qurolli Kuchlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mahalla faollari va nuroniylar ham ishtirok etib, mazkur yodgorlik poyiga gullar qo'ydi.

Davlatimiz rahbari bog'da o'rnatilgan "Xotira nuri" kompozitsiyasini ham ko'zdan kechirdi. U Ikkinci jahon urushi va front ortida mehnat qilgan o'zbekistonlik

qaqrmonlar xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan. Monument parvoz qilayotgan ikki qush shaklida bo'lib, katta va yosh avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi.

Asar tarixiy meros va zamonaviy san'atni o'zida mujassam etgan. Unga QR-havola o'rnatilgan bo'lib, tashrif buyuruvchilar majmua va urush qaqrmonlari haqida o'qishi, "Xotira nuri" kitobini yuklab olishi mumkin.



# XALQ QAHRAMONLARI HURMAT VA E'ZOZDA

## **Prezident Shavkat Mirziyoyev “G‘alaba bog‘i”dagi “Millat fidoyilari” xiyobonida bo‘ldi.**



Davlatimiz rahbarining  
g'oyasi asosida tashkil etilgan  
ushbu yodgorlik mustaqillik  
yillarida mamlakatimiz himoyasi  
yo'lida halok bo'lgan harbiy  
xizmatchilar va huquq-tartibot  
idoralari xodimlarining xotirasiga  
bag'ishlangan.

Majmua yuqoridan qaraganda davlatimiz bayrog‘idagi yarim oy va o‘n ikki yulduz shaklida namoyon bo‘ladi. Qariyb ikki metrli yulduzlarning qirralari bitiktosh vazifasini ham o‘taydi. Ularning yon taraflariga 196 nafar qahramonimiz nomi zarhal harflar bilan yozilgan. Bu bitiklar yoniga monitorlar o‘rnatilgan bo‘lib, millat fidoyilarini to‘g‘risidagi ma’lumotlar foto va videolar orqali namoyish etib boriladi. Ya’ni ularning faqat nomi emas, balaligi, orzulari, ishi va oilasi ko‘z oldimizda jonlanadi.

Bayrog'imizdagi yarim oy mo'jaz amfiteatr shaklida xiyobonga ko'rк bag'ishlagan. Uning tepasidan poklik ramzi – suv oqib turadi. Oyning orqa tarafidagi haykaltaroshlik kompozitsiyasi badiiy g'oyaga yakun yasagan. Uning markazida farzandini harbiy xizmatga kuzatgan ota-onasiyoshi gavdalantirilgan. Ikki yonida Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Oliy sud va prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya kabi tuzilmalar xizmatchilari aks ettirilgan.

Prezidentimiz shu yerda  
marhum harbiy  
xizmatchilarning oila  
a'zolari bilan  
uchrashdi

- Har yili bu yerga kelib, Ikkinchiji  
jahon urushidagi yo'qotishlarni  
eslaymiz. Endi mustaqillik fidoyilariga  
bag'ishlangan ushbu majmuani tashkil  
qilganimiz xayrli ish bo'ldi. Chunki  
ular ham milliy qahramonlarimiz. Shu  
jihatdan, bu maydonning ma'naviy  
ahamiyati katta. Bu ham o'zlikni  
anglash, bu ham inson qadri, - dedi  
Shavkat Mirzivoyev.

Davlatimiz rahbari Vatan  
himoyachilarining oila a'zolariga  
chugur hurmatini bildirdi.

- Bu jasur o'g'lolnar tahlikali vaziyatda o'zini o'ylamay, burchiga sodiq qolib, xalqi uchun jonini fido qilgan. Hozirgi tinchlikda, osmonimiz musaffoligida ularning katta hissasi bor. Oilalari, barcha yaqinlari bilishi kerakki, ular oramizda xuddi tirikdek, nomlari hech qachon o'chmaydi. Buni mana shu maydonda muhrlab qo'yidik. Men ularning ota-onalariga, turmush o'rtoqlariga ta'zim qilaman. Farzandlari qahramon otalariga munosib bo'lishini istayman, - deya ta'kidladi Prezident.

ta kidiadi Prezident.  
Millat fidoyilar tug'ilgan  
tumanlarda xotira tadbirlari  
o'tkazish, ularning mardligini  
yoshlarga ibrat qilib ko'ssatish,  
qahramonliklari haqida asarlar  
vozish zarurligi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev  
Ikkinci jahon urushi va mehnat  
fronti qatnashchilarini ham ziyorat  
qilib, bayram bilan tabrikladi.

*- Avvalo, sizlarni, siz orqali  
barcha faxriyalarimizni G'alanabing  
80 yilligi bilan tabriklayman!  
Xalqimiz nomidan barchangizga  
chuqur minnatdorlik bildiraman.  
Sizlarning qahramonligingiz  
tufayli bugungi avlodlar shunday  
tinchlik-farovonlikda yashayapti. Bu  
tinchlikning qadrini yoshlaramizga  
sizlar orqali yetkazishimiz kerak.  
Hayotingizning o'zi bizga namuna.  
Har bir gapingiz juda katta  
ta'lim, bilim. Ilohim, sog'lig'ingiz  
mustahkam bo'lib, ko'p yillar  
faxrimiz, duogo'yimiz bo'lib yuring,  
- deya tilak bildirdi Shavkat  
Mirzivo耶в*

Mizziyoyev.  
Nuroniyalar yurtimizda  
tarixiy xotira ulug'langani,  
keksalarga katta hurmat-  
e'tibor ko'rsatilayotganini  
avtib, duolar qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-fevraldag'i qaroriga muvofiq, urush va mehnat faxriyalariga munosib hurmat ko'rsatilmoqda. Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilarini va nogironlariga 10 ming AQSh dollari miqdorida, ushbu toifaga tenglashtirilgan shaxslarga 25 million so'm, mehnat fronti qatnashchilariga 3 million so'mdan bir martalik pul mukofotlari berilmoqda. Ko'plab muhtaram nuroniylarga "Ikkinchiji jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi" yubiley medallari topshirilmogda.

A bronze relief sculpture titled "The Iron Wall" (铁壁) by Chen Zhimin. It depicts a group of Chinese soldiers in military uniforms and helmets standing in a row, holding rifles. The scene is set against a backdrop of mountains, aircraft, and tanks.

## ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRILIJI

Urush faxriylari va nogironlari uchun tibbiy va ijtimoiy xizmatlar, jumladan patronaj xizmati ko'rsatilmoqda. Ular o'z xohishlariga ko'ra sanatoriylarda davolanganmودа.

Ko'ra, sanatoriylarda davolashni oqda.  
Tegishli vazirlilik, idora va  
tashkilotlar, harbiy qismlar  
rahbarlari ishtirokida urush va  
mehnat faxriylari, mustaqillik  
yillarida xizmat burchini bajarish  
chog'ida halok bo'lgan harbiy  
xizmatchilar va huquqni muhofaza  
qiluvchi organlar xodimlarining  
oila a'zolari holidan xabar  
olinib, yumushlariga  
yordamlashil-  
moqda.



Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!



**Buyuk sarkardalar yurtining har bir avlod o'ziga xos mardlik sinovlaridan o'tgan. Ularni qadrlash, xotirlash, biz bilan zamondosh yashayotganlarining duolarini olish – xalqimizga xos ulug' qadriyat. 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan bir guruh hamyurtlarimizga yuksak ehtirom ko'rsatilib, holidan xabar olinmoqda.**

## “TINCHLIGIMIZGA HECH QACHON KO'Z TEGMASIN!”



Tursunqul bobo Ergashov bu yil 103 yoshni qarshi olmoqda. U bir asrlik umri davomida faqat Vatanim, deb yashadi. Yurtning chin farzandi o'laroq har olgan nafasi uning maqsadlariga erishishda kuch bo'ldi. Jang maydonidan qaytib kelgan Tursunqul bobo 50 yil pedagog sifatida faoliyat olib bordi. Unib-o'sib kelayotgan o'g'il-qizlarga ta'lim-tarbiya berdi. Ularning qalbida ona Vatanga bo'lgan muhabbatni shakkantirdi.

– Inson istasa, hamma narsaga erishar ekan, – deydi Tursunqul bobo. – Faqat yo'lda uchragan to'siqlardan qo'rmasa, o'ziga bo'lgan ishonchni so'ndirmasa bo'lgani. Men hech qachon harakatdan to'xtagan emasman. Ayolim bilan olti o'g'il va bir qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdik. Hayotda o'z o'rinalarini topishlari uchun qayg'urib yashadik. Qolaversa, o'quvchilarim ham farzandlarimdek edi. Hech qachon ulardan hayotiy tajribalarimni ayamadim. Bilasizmi, yoshlik

bahorga o'xshaydi: yashnaysiz, kurtak ochasiz, yoqimli hidlar taratasiz. Ammo uning chalg'ituvchi pallasi ham bo'ladi. Ana shu sinovlardan muvaffaqiyatlari o'tish kerak.

O'quvchilarimga kim bo'lishidan qat'i nazar, avvalo, yurt koriga yaraydigan, taraqqiyotiga hissa qo'shadigan farzand bo'lishi kerakligini o'rgatib yashadim. Shukrki, bugun nabiralarga ham shu o'gitlarni berib kelyapman. Eng muhimi, xalqimiz, davlatimiz, Prezidentimizning e'tiborida ekanimdan juda ham xursandman. Bunday e'zoz bizga kuch-quvvat bermoqda.

Tursunqul bobo Ergashov, Ahad bobo Ochilov hamda Lyubov Kireyeva va Vladimir Kuznetso sog'liqlari ayni vaqtida Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalining malakali harbiy shifokorlari nazoratida.

– Yoshi katta otaxon-u onaxonlarni e'zozlash xalqimizga

xos an'ana, – deydi 101 yoshni qarshi olgan Ahad bobo Ochilov.

– Shunday shinam va barcha qulayliklarga ega harbiy gospitalda bizga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik tahsinga loyiq. Avvalo, barchasi uchun davlatimiz rahbariga o'z minnatdorligimni bildiraman. Harbiy shifokorlarga rahmat. Ular bizning ahvolimizdan ko'z-quloq bo'lib turibdi. Ha-ya, Prezidentimiz tomonidan imzolangan farmonni eshitib, juda ham xursand bo'ldim. Biz og'ir ocharchilik, yo'qchilik kunlarni boshimizdan o'tkazdik. Buni farzandlarimiz hech qachon ko'rmasin. E'tibor va g'amxo'rlikdan g'oyatda mammunmiz. Tilagim, jannatmonand Vatanimiz, musaffo osmonimiz, tinchligimizga hech qachon ko'z tegmasin.

Davlatimiz rahbarining imzolagan farmoniga ko'ra, Ikkinchchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 10 000 AQSh dollari miqdorida, ushbu toifaga tenglashtirilgan

shaxslarning har biriga 25 million so'm miqdorida va mehnat fronti qatnashchilarining har biriga esa 3 million so'm miqdorida bir martalik pul mukofotini berish belgilangan. Bu, albatta, mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan faxriylar uchun munosib rag'bat.

Ushbu mukofotlarni mudofaa vaziri general-major Shuxrat Xalmuxamedov Prezidentimizning bayram tabrigini o'qib eshittirgan holda qimmatbaho sovg'a bilan tantanali ravishda topshirdi.

Albatta, mana shunday farahli kunlarga yetishimizda beqiyos hissa qo'shgan qahramon bobolarimiz sana munosabati bilan yana bir bor e'zozlandi. Ularning jasorati va fidokorona xizmatlari bundan keyin ham katta ehtirom bilan yodga olinaveradi. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlod uchun iftixor va ibrat yo'li bo'lib qoladi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,  
"Vatanparvar"**

9-may – Xotira va qadralash kuni

Poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i" va ushbu hududda joylashgan "Shon-sharaf" davlat muzeyiga hech borganmisiz? Unda yo'lingiz tushsa, albatta bir kirib o'ting. Chunki bu yer siz-u bizning, xalqimizning mardligi va jasoratidan so'zlaydi. Aka, gapimga ishoning. Men sizga yomonini tavsiya etmayman.

## "G'ALABA BOG'I"GA BORSAM MEN AGAR...



Hududga qadam qo'yishingiz bilan qulqlaringiz ostida artilleriya to'plaridan otildi. Snaryadlar gumburlashi, o'qlarning zuvullab uchishi, qiruvchi samolyotlarning shovqini, g'alabani maqsad qilib dashmanga peshvoz chiqqan qahramonlarning hayqirig'i yangraydi. O'rta farzand g'amidan adyo tamom bo'lgan Zulfiya Zokirova beva qolgan kelinlarini yoniga olib, olamga ma'yus qaraydi. Uning nigochlari butun onalarimizning alamli izziroblari bor.

– Onalar uchun dardning begonasi bo'lmaydi, – deydi Toshkent shahri Olmazor tumanida istiqomat qiluvchi Nozima Yaminova. – Har safar Zulfiya Zokirova monumenti oldidan o'tar ekanman, qalbim alamli og'riqni tuyadi. Bir o'ylab ko'ring, besh o'g'lini janglarga yuboradi. Ular ortidan esa "qoraxat" keladi. Shunda ham kelinlari bilan jigarbandlari yo'liga ko'z tikib, ularni ilhaqlik bilan kutadi. Mening ham uch o'g'lim va bir qizim bor. Agar farzandlarim ehtiotsizlik qilib, biror yerini qonatib olsa, jonim hiqildog'imga keladi. Bu – onalik mehri, shafqati va instinkti. Uyimiz "G'alaba bog'i"ga yaqin bo'lgani uchun bu yerga kelib, tarix bilan yuzlashamiz. Ayniqsa, bolalarimiz har bir eksponat xususida so'raydi. Ana shunday kezlarda ularga ota-bobolarimizning ko'rsatgan jasorati haqida hikoya qilib beraman. Bugungi sayohatimiz davomida ham farzandlarim bilan qurollar, samolyot-u tanklarni tomosha qildik. "Shon-sharaf" davlat muzeyidan joy olgan buyumlar bilan

yana bir bor tanishdik. Men bir narsani ishonch bilan ayta olamanki, tarixni bilgan va undan to'g'ri xulosa chiqarib ulg'aygan bola kelajakda Vatanim, deb qayg'uradi. Shu yo'lda dadil va ishonchli qadam qo'yadi. Bizning maqsadimiz esa farzandlarimizni ajdodlarimizga munosib qilib kamol toptirish.

Bog'ning chetidagi o'rindiqa o'tirib, xayollarim domiga cho'kaman. Emishki, 12 kishidan iborat kichik guruh o'rmon ichidan shoshib bormoqda. Ularning hammasi qurollarini jangovar shay holatda ushlab oлgan. Ust-boshlari loy, qon anqiydi. Nigochlarda qo'rquvdan asar ham yo'q. Oldinda ketayotgan baland bo'yli, yelkador jangchi qo'lini daf'atan ko'tarib, hammaga to'xtash buyrug'i ni berdi. Shunda ortagilar tosh qotdi. Aloqachi emaklagancha u tomonga intildi. Yetakchi ko'zlarini to'g'riga qadagancha qoshlarini qattiq chimirib, jiddiy ohangda so'zlay boshladi:

– Markaz, ro'paramizda dushman. Pistirmadan ularga hujum qilamiz. Qabulmi?

– ...

Javob yo'q.

Hamma sukut saqlaydi. Kimdir chuqur nafas olib, chiqaradi. Kapalak qanotidan chiqqan tovush atrofga cho'kkani jimlikni buzadi. Kimdir oyoq ostidagi qurigan shoxni qattiq ezadi. Shunda guruuning chap biqinida pozitsiya egallab turgan kishi shu tomonga qaraydi. Birdan taniyman – Isoqjon Xolmatov. Zulfiya Zokirovaning kenja o'g'li. U onasini,

ayolini, barcha yaqinlarini uyda qoldirib, dom-daraksiz ketgan to'rt akasining ortidan urushga kirkandi. Yuzi qayg'udan ado bo'lgan. Qo'llari titraydi. Lablari gezarib, ko'karib qolgan. Qorachiqlari qon ichida suzib borayotgan kemaga o'xshab ko'rindi.

Hujum boshlandi. O'qlar zuvullab u tomongan bu tomonga uchadi. Oyoqlarim ostiga snaryad kelib tushadi. Tanam qaqshaydi. Tovonim birdan iliqliknii his etadi. Boyagina oldingi safdan kelayotgan ovoz ham so'nib, ingrashga aylanadi. Ammo birozdan keyin yana o'sha hayqiriq yangraydi:

– Do'stlar, to'xtamang! G'alaba biz tomonda!..

Isoqjon sudralib borib, qurolini qo'lga oladi va yana dashmanga o'qtaladi.

Tepki bosiladi. Bu jang uzoq davom etdi. Qon daryo bo'ldi. Yig'i ovozlar eshitila boshlaydi... Endi o'zimni umuman sezmay qolaman. Yoshlangan ko'zlarimni tepaga tikaman. Ko'kda o'laksaxo'r parvoz etayotganini ko'raman. Qora, yoqimsiz, katta qanotlari bilan borliqni, quyosh betini to'sishga urinmoqda. Mana, endi havo yetmayapti. Daraxt barglari shitirlab, yerga – hammamizning ustimizga sochilib, kafanga aylanadi. Yonboshimda Isoqjon, u jilmayib yotibdi. Ko'zlar ham ochiq. Qo'lida qurol. Faqat jonsiz.

O'g'il-qizlarning qiyqirig'idan hushimga kela boshlayman. Boshimda turgan og'riq a'zoyi badanimni qaqshatadi. Ilon chaqdimikan, deyman

shivirlab. O'tmish va bugun o'rtasida qolib ketaman. Kimman o'zi?

– Daraxt ildizsiz yashay olmaganidek, inson ham milliy o'zligi bilan tirik, – deydi Chirchiq shahridan kelgan Nasiba Ahmedova. – O'zini shu Vatan farzandi, deb bilgan har bir inson avvalo istiqolni qadrlaydi, asrab-avaylaydi, kerak bo'lsa ko'ksini qalqon qiladi. Yillar, asrlar o'tsada, o'zbek qahramonlarining jasorati kelajak avlodning haqiqiy vatanparvar bo'lib ulg'ayishida muhim o'rinn tutadi. Bugun oilamiz bilan kelib, jasoratlari ota-bobolarimiz haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ta'kidlashim kerakki, ushbu maydon chin ma'noda xalqimizning jasorati, sadoqatini o'zida mujassam etgan, yoshlarni yurtga daxldorlik ruhida tarbiyalaydigan maskanga aylandi.

"Shon-sharaf" davlat muzeyidagi katta ekranda o'sha janglar tasvirlangan filmlar namoyish etilmoqda. Tik oyoqda turib, qo'llarini mahkam ushlagancha ana shu tasvirlarga singib ketgan 60 yoshdag'i onaxon e'tiborimni tortdi. Ayni paytda uning ruhi bu yerda emas. Jussasi borgan sari maydalashib, ko'zlar qisilib ketyapti. Lablari ohista titraydi. Yuzi so'lib qoldi. Uning yoniga borolmadim. Uzoqdan turib, dardini his qildim. Va ketdim. Yelkamga boshqa bir yelka urilmaguncha boshimni egib, bog'da kezib yurgan qahramonlarning qaynoq taftini his qilib, boraverdim.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,  
"Vatanparvar"**



# XOTIRANI QADRISH LOZIM

Yurt tuprog'ini to'tiyo qiling, degan gap bor. Bu gapning zamirida qanday ma'nou yotishini musofir bo'lib anglaganman. Bolaligimda oyog'imni shilib olsam, onam yaramga tuproq sepib qo'yardi, oradan ozgina vaqt o'tib, jarohatdan asar ham qolmasdi. Haqiqatan, Vatan tuprog'ini to'tiyo etmoq kerak. Men yuqorida keltirgan misol juda ham oddiy, aslida esa tuproqni ko'zga to'tiyo etish ozodlik, Vatan tinchligi ma'nolarini anglatadi.

Bugun yana bir so'zning ma'nosini tushungandek bo'ldim. Xotira. Bu so'zning og'riqlari shunchalar alamqliki, agar tagzamiriga yetib boradigan bo'lsangiz, bo'g'zingizga achchiq faryodlar dodi, mungli nighohlar o'tinchi cho'kib qoladi. Otam yoshlik kezlarimiz qabristonga boshlab borib, ota-bobolarimiz haqida soatlab so'zlardi. Zerikib ketardim. "Ota, qachon uyg'a ketamiz", deya xarxasha qilganlarim ham yodimda. Bugun anglab yetyapmanki, otam farzandining xotirida avlodlar zanjiri uzilmasligini istagan.

Ish yuzasidan Yangyo'l shahriga boradigan bo'ldim. Bahor nafasi hamma yerni yashillikka burkagan, daraxtlar tizilishib yangi olgan ko'ylagini ko'z-ko'z qilayotgan qizlardek tovlanib turibdi. Ayniqsa, bunday paytalar mashina oynasidan atrofnı kuzatib ketish o'zgacha zavq beradi odamga. Osmonga sochib yuborilgan paxta bo'laklaridek bulutlar, har joy-har joyda samo uzra yastanib yotib olgan-u, yerni tomosha qilib turganga o'xshaydi.

Kun yarmiga yetganda Shermuhammad Ashirov xonadoniga yetib keldik. Hovlida giloslar shoxlarini ko'tarolmas darajada hosilga kirgan, ishkomga tarab qo'yilgan uzum novdasidagi barglar ko'nglingizga o'zgacha halovat beradi. Xonadonda o'zgacha ruh bor edi.

Bizni yoshlari saksondan oshgan onaxon kutib oldi.

- Kelinglar, bolajonlarim, bolajonimning do'stlari, kelinglar, - hammamizni bag'riga bosib ko'rishadi. - Sog'-omonmisizlar, oilalaring tinchmi, aylanay o'zim sizlardan, - deya ko'zlarida yosh aylanadi. Salom-alikdan so'ng hamkasb do'stim onaxonni gapga tutadi:

**- Onajon, Shermuhammad akamning bolaligi haqida gapirib bering.**

- Onajoning aylansin-a, bolam, - deb so'z boshlaydi Munisaxon aya. - Dunyo bag'ritoshlik qildi, bolam. Bolajonim ayni yigit yoshida bu olamni tark etdi. Shermuhammadim judayam quvnoq, shirinso'z bola edi, agar nimadandir kayfiyatim yo'q bo'lib tursa ham, bolamning tabassumini ko'rishim bilan ko'nglim yorishardi. Kenjatoyimning yurishiga ham, kiyinishiga ham hamma

havas qilardi. Uyimizdan do'stlari arimasdi. U bolaligida uchuvchi kiyimini kiyib suratga tushgan.

**Onaxon suratni topib, bizga ham ko'rsatdi.**

- Uchuvchi bo'lishi istagi bolaginam yuragida ana shunda paydo bo'lgan, deb o'layman. Ulg'aygach, shu yo'lni tanlab, yurtimizga xizmat qildi. Aslida, rahmatli dadasi uchuvchi bo'lishni orzu qilgan ekan. Shuning uchun o'g'liga yordam berdi. Qo'llab-quvvatladi.

**So'zining yarmida farzandi yodiga tushib ketdimi, onaxonning gapi og'zida qoladi, ko'zlarji jiqqa yosh bo'lib o'zini zo'rg'a tutib davom etadi:**

- Bir kuni hech uyqum kelmadni, u tomonga yonboshlayman, bu tomonga yonboshlayman, yaxshi narsalar haqida o'layman, ichimda duolar qaytarib yotaman, hech uyqum kelmaydi, ko'nglimni boshqacha qo'rquv egallab olgan, atrof suv quygandek jimjit, tun qorong'isi esa qo'rquvimi battar oshiradi. Bir payt ko'zim ilingan ekan, "Shermuhammad!" deb baqirib yubordim. Nimaga, nima uchun, bilmayman. Shunda o'g'limning joni uzilgan ekan, ertasiga bildim buni...

**Ko'zlarida yosh bilan bir nuqtaga termilib qoladi Munisaxon aya.**

O'ziga kelib olgach, yana so'z boshlaydi:

- Er yigit elning bolasi, tinchlik va osoyishtalikni shular saqlaydi-da... O'g'limdan mingdan ming roziman, umri qisqa bo'lsa-da, chaqmoqdek yashadi, tinim nima, bilmadi. Haligacha do'stlari, safdosh o'rtoqlari kelib turadi. Qanday xizmat qilganini, mendan yiroqda bo'lganida nimalar qilganini shular gapirib beradi, - deb so'zini yakunlaydi onaizor.

Onani yaratmasin ekan, deyman ko'zyoshlariga g'arq bo'lgan bu ayol qoshida **xotira shundoq ko'zing o'ngida jonlanib turibdi**. Farzandini ilk bor qo'liga olganidan qabrga qo'ygunga qadar yashalgan o'tli xotira. So'ng qahramonimizning do'stlariga yuzlanaman, ular ham bu jasur yigitning qaynoq qalbi, mardligi haqida yonib gapiradi.

**Kursdoshi va yaqin do'sti podpolkovnik Sherli Choriyev Shermuhammad Ashurov bilan o'tgan paytalarini shunday hikoya qiladi:**



**Shermuhammad Ashirov 1975-yil 23-yanvarda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani, Xalqobod qo'rg'onida tug'ilgan. Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining ilk bitiruvchilaridan biri. 2000-yili Surxondaryo viloyatining Sarosioy tumanida bo'lgan jangovar harakatlarda halok bo'lgan. II darajali "Shon-sharaf" ordeni bilan taqdirlangan.**

- Shermuhammad mard yigit edi. U mening ishonchli, suyangan do'stim bo'lgan. Otryadimiz bir joyga to'planganda, u bizga she'rlar o'qib, hammaning ko'nglini ko'tarardi. Uni insoniy fazilatlarini judayam hurmat qillardik. Xushchaqchaq, do'stlariga yordam qo'lini cho'zadigan, bilimga chanqoq, chin ma'nodagi vatanparvar, yoshlarga o'rnak qilib ko'rsata oladigan shaxs edi. Kursantligimizda qidirib topa olmagan kitoblarni undan topardik. Kitoblari juda ko'p edi. Uning shaxsiy kutubxonasi havo navigatsiyasi, aerodinamika, uchish qoidalari to'g'risidagi darsliklar, Erkin Vohidov, Pirimqul Qodirov kabi shoir-yozuvchilarining kitoblaridan iborat edi. Favqulodda iqtidori, tirishqoqligi bilan yo'riqchi ofitserlarning maqtovlariga ko'p bor sazovor bo'lgan.

Qahramonimizning xonadonidan qaytar ekanman, ko'nglimga tun cho'kib qoladi, qaniyi tirik bo'lsa, shu suhbatlarni, jang taassurotlari, qahramonliklari haqida o'zidan tinglasak, deyman. Mashina derazasidan olislarga termilaman, ufqning bag'ri qontalash alvonrangga kirgan. So'ng pichirayman: "**Xotirani qadrash lozim**". Axir bir insonning xotiraga aylanishi uchun qanday ulkan yurak, insoniylik, qahramonliklar kerak. Shunchaki yashab o'tishning o'zi kamlik qiladi.

Yuqorida ham beziz bu so'zga urg'u bermadim. Mana shu safar davomida Xotira va qadrash kunining inson hayotida nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanini tushunib yetdim. **Millat qahramonlarini unutmaydi, ularning yodini tillardan tillarga, zamonlardan zamonlarga olib o'taveradi.**

**Muhammadali G'AFFOROV,  
"Vatanparvar"**

Harbiy-vatanparvarlik

# Tinchlik

## POYDEVORI



Bugungi global tahdidlar, mafkuraviy ta'sirlar va axborot urushlari davrida armiya safidagi har bir harbiy xizmatchining ma'naviy-ma'rifiy barkamolligi, intellektual yetukligi va Vatanga sadoqati davlatimiz xavfsizligida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bosh boshqarmasi hamda vazirlik tasarrufidagi tarbiyaviy-mafkuraviy organlar zimmasiga ulkan va javobgar vazifalar yuklatilgan.



### STRATEGIK USTUVORLIK

Tarbiyaviy-mafkuraviy ishlari bosh boshqarmasi faoliyati harbiy xizmatchilarini ideologik jihatdan tayyorlash, ularda yuksak vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar va davlat ramzlariga hurmat tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan. Bosh boshqarma tomonidan respublika miqyosida doimiy ravishda tarbiyaviy-mafkuraviy yo'nalishdagi uslubiy qo'llanmalar, videoroliklar, ma'ruzalar to'plami ishlab chiqilmoqda. Ushbu materiallar qo'shinlardagi tarbiyaviy-mafkuraviy organlar ofitserlari orqali harbiy qislardagi faoliyatni mazmunan boyitishga xizmat qilmoqda.

Bugun armiyada ma'naviyat, axloq va vatanparvarlik ustuvor qadriyatga aylangan. Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy okrug, harbiy qism va muassasalarda faoliyat yuritayotgan tarbiyaviy-mafkuraviy organlar ofitserlari nafaqat ma'naviy-ma'rifiy rahbarlik, balki jamoaviy muhitni shakllantirish, yoshlarning shaxsik muammolariga yechim topishda ham faoliik ko'rsatmoqda. Ular harbiy xizmatchilarning ruhiy va psixologik holati, axloqiy kamoloti bilan doimiy ish olib bormoqda. Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari, tarbiyaviy suhbattlar, individual muloqotlar, tematik tadbirlar orqali harbiy xizmatchilarni jamoaviy maqsadlarga safarbar qilish tizimli asosga qo'yilgan.

### MAFKURAVIY IMMUNITET ASOSI

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari o'rtaida axborot xurujlariga qarshi ma'rifiy-tushuntirish ishlari muntazam tashkil etilmoqda. Bosh boshqarma tashabbusi bilan "Ma'naviyat soatlari", "Uch avlod uchrashuvi", "Mustahkam oila - jamiyat tayanchi" kabi tadbirlar tashkil etilib, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari orasida ruhiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu orqali harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-siyosiy faoliigi, huquqiy savodxonligi, shuningdek jahon va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat va sodir bo'layotgan voqe-a-hodisalarga O'zbekiston Respublikasining munosabatini tahlil qilish qobiliyati ham rivojlanmoqda.

### HAMKORLIK – UMUMIY TARBIYA MAKONI

Tarbiyaviy-mafkuraviy ishlari tizimi faqat harbiy qism ichida cheklanib qolmasdan, olyi harbiy ta'lim muassasalari, "Temurbeklar maktabi" va mahalliy hamkor tashkilotlar bilan birgalikda olib borilayotgani ham bugungi kunda muhim samara bermoqda. Umumta'lim maktablari va litsey-texnikumlardagi harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi tadbirlar, Vatan himoyachilari bilan uchrashuvlar, "Harbiy qismda bir kunim", "Ochiq eshilklar kuni" loyihalari doirasida faol ishtirok etayotgan yosh avlod qalbida fidoyilik va sadoqat kuchaytirilmoqda.

### JANGOVAR TAYYORGARLIKNING AJRALMAS QISMI

Harbiy xizmatchi ruhan baqvuvat bo'lmasa, u jangovar harakatlarda yuqori samara ko'rsatolmaydi. Shu sababdan har bir mashg'ulot va tayyorgarlik jarayonida tarbiyaviy-ideologik jihat ustuvor hisoblanadi. Ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, kursantlar uchun maxsus dasturlar bunga yorqin misol bo'la oladi. Moddiy-texnik tayyorgarlik bilan ma'naviy tayyorgarlik uyg'un holda olib borilmoqda.

Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bosh boshqarmasi va tizimdagi organlar tomonidan olib borilayotgan ishlari yurtimiz tinchligi, xalqimiz xotirjamligini ta'minlash yo'lidagi mustahkam g'oyaviy asosdir. Armiyadagi yuksak ma'naviy muhit xavfsiz va barqaror kelajak kafolatidir. Qo'shinlarda amalga oshirilayotgan ishlari harbiy xizmatchilar qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat va fidokorlik tuyg'usini yanada mustahkamlamoqda.

**Umida ABDAKOVA,  
O'ZJOKU 3-bosqich talabasi**

## Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!

Uzoq yillarda davomida Davlat chegaralarini qo'riqlash ishiga kamarbasta bo'lib, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shgan mehribon ustoz, benazir va kamtarin inson, marhum general-major Abdullajon Ortiqboyev o'z hayotini Vatan tinchligi va osoyishtaligini saqlashdek sharafla hamda mas'uliyatli kasbga bag'ishlagan fidoyi insonlardan biri edi.

# JASORATGA BOY UMR

1925-yil 25-sentabrda tavallud topgan qahramonimiz 1943-yilning fevralida 18 yoshida harbiy xizmatga chaqiriladi. U Turkiston harbiy okrugi 368-Samarqand o'qchilar polkida oddiy askar bo'lib xizmat qilgan davridayoq, o'z hayot yo'lini aniq belgilagandi.

1945-yilning fevralida harbiy bilim yurtini tamomlagach, safdoshlari bilan birga G'arbiy Ukrainaga – avvaliga Lvovga, so'ngra Mukachevoda shakllantirilgan yig'ma polk tarkibida vzvod komandiri lavozimida xizmatga yuborilgan Abdullajon Ortiqboyev bo'yusunividagi bo'linmani mohirlik bilan boshqargan holda, bir qator jangovar operatsiyalarda muvaffaqiyatlari ishtirok etadi.

Urushdan so'ng qahramonimiz harbiy sohaga uzviy bog'lanib, yurtni himoya qilishni o'zi uchun maqsadga aylantirdi va sarhadlarimiz daxlisizligini ta'minlash yo'lida faoliyat olib bordi. Yillar davomida to'plangan tajriba, malaka va mahorat sabab Abdullajon Ortiqboyev general-major harbiy unvoniga munosib deb topilib, butun xizmati davomida ellikdan ortiq orden, medal va faxriy yorliqlar bilan mukofotlangan.

Chegara qo'shinlari faxriysi marhum general-major Abdullajon Ortiqboyev

iste'fodagi davrida ham harbiylar bilan o'tkazilgan uch avlod uchrashuvlarda mutazam ishtirok etib, shogirdlariga ham ruhan, ham ma'nан quvvat ulashib keldi.

Jonkuyar ustoz o'z oilasi bilan ham ko'pchilikka o'rnak bo'larli umr kechirdi. Abdullajon ota va Shahzodaxon aya Ortiqboyevlar oilasi 75 yil davomida hayotning achchiq-chuchugini boshdan kechirgan holda, yosh oilalarga har jihatdan ibrat bo'lib keldi. 2022-yil 25-iyul kuni beshafqat o'lim og'ir xastalikka uchragan Abdullajon otani 97 yoshida oramizdan olib ketdi.

Abdullajon Ortiqboyev bu yorug' dunyonni tark etgan bo'lsada, ustozning porloq xotirasini uning do'stlari, hamkasbleri, shogirdlari va yaqinlari qalbida hamisha barhayot. 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan chegarachilarining chin ma'nodagi "onasi" Shahzodaxon aya Chegara qo'shinlari muzeiyiga taklif etildi.

Aya bu yerda 2024-yilda yangilanib, yanada boyitilgan ekspozitsiyalarni tomosha qilar ekan, muzejey to'rida Abdulla otaning jangovar-xizmat faoliyati aks etgan burchakdan o'rinn olgan tarixiy fotosuratlar, faxriy

generalning mardligi va jasoratidan dalolat beruvchi, ko'ksiga orden va medallar qadalgan harbiy libosini ko'rib, umr yo'lodoshi bilan o'tgan uzoq va baxtli hayot yo'llarini birma-bir ko'z oldida gavdalantirdi.

– Chegara qo'shinlari tarixi – bu men va generalimning uzoq yillik o'tmishimiz bilan chambarchas bog'liq. Yashil rang esa menga doimo o'zgacha kayfiyat ulashib keladi. Avvalambor, u davlatimiz ramzi bo'lgan bayrog'imizda aks etib turibdi. Qolaversa, kechagidek yodimda, generalim ham chegarachilariga xos bo'lgan ana shu yashil rangdagi furajkasini doim faxrlanib kiyib yurar edi, – deydi aya to'lqinlanib.

Shu kuni Shahzoda aya va chegarachilar "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida ham bo'lib, matonat timsoli hisoblanmish Zulfiya Zokirova poyiga gullar qo'ydi. Aya bu yerda yoshlar bilan suhabatlashar ekan, Vatan tuyg'usining naqadar ulug'ligini, bugungi dorulamon kunlarga yetish uchun mardlik namunalarini ko'rsatgan qahramon ajdodlarimizning ruhini shod etish, ularni hamisha yoddha tutish zarurligini ta'kidladi.

Shahzoda aya taklif etilgan navbatdagi tadbir Chegara qo'shinlari

Harbiy gospitalida tashkil etilgan "Xotira muqaddas, qadr aziz!" shiori ostida o'tadigan uchrashuv bo'ldi. Bu yerda ham yurt tinchligi aslida – oila tinchligi ekani, sabr baxting, shukronalik esa farovon hayot eshiklarining oltin kaliti hisoblanishi, o'tganlarni xotirlash va yon-atrofdagilarni qadrlash esa eng olyi insoniy fazilatlar sanalishi e'tirof etildi.

– Gospitalning shirinsko'z va mehribon shifokorlaridan minnatdorman. Generalimga va menga doimo hurmat-ehtirom ko'rsatib, sog'lig'imizga hamisha g'amxo'rlik qilib kelgan. Hozir ham salomatligimni nazorat qilib boradi. Ularning barchasini o'z farzandimdek yaxshi ko'raman, – deydi aya.

Ha, tug'ilib o'sgan Vatanini aziz va muqaddas bilib, zimmasidagi mas'uliyatni nom yoki shuhrat qozonish uchun emas, balki ming zahmatlar evaziga yuksak fidoyilik namunalari bilan ado etgan insonlar, garchi o'zlar bu dunyonni tark etgan bo'lsalar-da, ularning aziz nomlari, ko'rsatgan mardlig-u jasoratlari kelajak avlodlar xotirasida abadiy yashayveradi.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Harbiy sulola



## VATAN OLDIDAGI BURCHI

Hayotda har kimning bolaligi har xil o'tadi. Kimdir bolalikni beparvo kechiradi, kimdir esa har bir qadami uchun javob berishi kerakligini erta anglaydi. Ayniqsa, harbiy oilada tug'ilgan farzandlar uchun bu haqiqat yanada chuqurroq seziladi.

Men ham harbiy oilada tug'ilib o'sganman. Bobom va otam umrini Vatan himoyasiga bag'ishlagan insonlar. Otamning harbiy kiyimda shaxdam qadam tashlashi, jasoratli qarashlari men uchun doim ibrat bo'lib kelgan.

Ko'chada yurganimda, mактабда yoki institutda tahsil olganimda, ishga kirganimda ham doim bitta narsadan faxlanardim: mening bobom va otam Vatan himoyachisi! Demak, men ham ularga munosib bo'lishim kerak. Chunki harbiyning farzandi bo'lish shunchaki taqdир emas, balki sharaf va mas'uliyatdir.

Harbiy oilada ulg'ayish bizga bolaligimizdan qattiq intizomni, qat'iyatni va burchni anglashni o'rgatdi. Ba'zan boshqalarga qo'yilmagan talablar bizga qo'yiladi. "Sen harbiyning farzandisan, o'zingni shunga yarasha tut!" degan gaplarni juda ko'p eshitamiz. Balki bu biroz boshqacha tuyular, ammo hayotimizda ushbu qoida bizni yanada kuchli, sabotli va to'g'ri yo'ldan yuradigan shaxs qilib tarbiyaladi.

Ba'zan hayot bizga tayyor yo'lni emas, sinovlar bilan to'la yo'llarni tanlash imkoniyatini beradi. Harbiy oilada tug'ilib o'sgan har bir bola bu yo'lning naqadar murakkab va mas'uliyatlari ekanini juda yaxshi tushunadi. Chunki sening otang - Vatan himoyachisi. Demak, sen ham hayotda boshqacha yurishing, boshqacha yashashing kerak, degan mas'uliyatni doim yodda tutadi. Harbiy oilaning farzandlari uchun bolalik boshqacha o'tadi. Otamiz xizmat safari bilan uzoq vaqtga ketadi, biz esa onamiz bilan uyda qolamiz. Harbiy intizom faqat otalarimiz uchungina emas, balki butun oila uchun asosiy qoidaga aylanadi. Harbiy oilaning har bir a'zosi bu qoidalarga rioya qiladi: intizom, fidoyilik, sadoqat va shijoat.

Ba'zan maktabda o'qigan davrimda sinfdoshlarim "Nega sen doim harbiy tartib bilan yurishing kerak?" degan savollar berardi. Men

# UCH AVILODNING



### XOTIRA AZIZ, QADR MUQADDAS

*Farzandim, ajdoding xotirin asra,  
Xokisor elning qadriga yetgin.  
Moziyga qulog tut, nigoh sol asta,  
Ilkingda ne burch bor chin ado etgin,  
Sen unga sodiq bo'l har dam, har nafas,  
Xotira azizdir, qadr muqaddas.*

*Qalbga muhrlanar o'tganlar yodi,  
Ne ezgu amal bor ketmagay beiz,  
Tarix guvoh erur buning isboti,  
Mardlar siyomsiga el mehri cheksiz,  
Qadri baland yurtga yovlar bo'ylamas,  
Xotira azizdir, qadr muqaddas.*

*Sizni unutmaymiz to zamin mangu,  
To quyosh nurlari yo'ldoshdir bizga.  
Millatim ko'ksida yashar bu tuyg'u,  
Yasharsiz har avlod - har o'g'il-qizda,  
El degan yovqurlar dillarga payvast,  
Xotira azizdir, qadr muqaddas.*

*Xotira uyg'oqli inson barhayot,  
Qadr poyidadir umr hikmati,  
Shu ikki tuyg'u-la azizdir hayot,  
Shu ikki so'zda jo inson sur'ati.  
Mardlari mangu xalq aslo yengilmas,  
Xotira azizdir, qadr muqaddas.*

**Mayor Dostonbek NISHONBOYEV,  
harbiy qism tarbiyaviy va mafkuraviy  
ishlar bo'linmasi boshlig'i**

**Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"**



# QAT'IYATLI, SHIJOATLI VA MILLATPARVAR TARIXCHI



Marhumlarning tiriklikda qilgan ishlari, insoniy xislatlari va fazilatlarini qadrlash, xotirlash ortda qolgan avlodning burchidir. Chunki inson borligi va tirikligining eng muhim tamoyili uning xotirasidir. O'tganlarni xotirlash tiriklar uchun ham qarz, ham farz, qolaversa, savob ish bo'lib, u xalqimiz ma'naviy qadriyati ekanini ham unutmasligimiz kerak.

O'z hayat va faoliyati davomida o'nak olsa arziydigan insoniylik xislatlarini bugungi avlodga meros qoldirgan, shunday betakror ustoz va olimlardan biri, Buxoro avliyolarining tolmas tadqiqotchisi, tarix fanlari nomzodi, dotsent Narzulla Yo'ldoshevdir. Olim g'amxo'r muallim, yor-u do'stlarining maslakdoshi, shuningdek samimiylig, kamtarlik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarga egaligi tufayli xotirlashga munosibdir.

Tarix ilmining bilimdoni, xassos olim Narzulla Yo'ldoshev o'zi tug'ilib o'sgan shaharni, uning har bir toshini jon-dildan sevardi, o'zini Buxoro deb, Buxoroni o'zi deb bilardi...

Olim Buxoro vohasida ko'plab arxeologik ekspeditsiya tadqiqotlarni olib borgan. Buxoro shahri yaqinidagi "Tali Murda Partau" tepaligi, "Varaxsha", "Romitan qo'rg'on'i", "Vandonze", "Romushtepa" arxeologik yodgorliklari va Varaxsha cho'li massividagi qadimiy tepaliklar shular jumlasidan. Dasht, qumliklar, arxeologik qidiruv hududlari ustoz uchun ilmiy muhit, dam olish va muloqot maskani edi. Ustoz bilan qum barxanli tepaliklarda yurganingizda o'tmish obidalari, qadim osori atiqalar "tilga kirgandek" bo'lardi go'yo, - deb olimning zamondoshlari xotirlashadi.

N. Yo'ldoshev akademik Yahyo G'ulomov izidan borib, qadimiy tepalik va yodgorlik borasida o'z ona Vatani, shahri uchun fidoyilik ko'rsatdi. 1970-1980-yillarda Buxoro viloyati yo'l qurilish boshqarmasi tomonidan Buxoro aeroporti va Bahouddin Naqshband tarixiy-me'moriy majmuasini tutashtiradigan yangi yo'l qurilayotgan edi. Mazkur yo'lni ko'tarish uchun tuproqni Bahouddin Naqshband ziyoratgohidan 2 km uzoqlikda joylashgan tepalikdan olib kelish smetada belgilangandi.

Yo'lsozlar va quruvchilar tepalikning qadimiy ekanidan bexabar edi. Zahmatkash olim tepalikdan foydalinishga qarshi chiqib, yo'l qurilish rahbarlari va ishchilari bilan uchrashadi va uning muhim tarixiy ahamiyatga ega ekanini isbotlab beradi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, sohibqiron Amir Temur har gal Buxoroga, xususan Qasri Orifonga kelganida, shu yerda to'xtab, tepalik ustida o'z tug'ini o'rnatgan. So'ngra tepalikdan Hazrat Bahouddinning manzillarigacha bo'lgan masofani piyoda bosib o'tgan. Buxoro tarixining chuqur bilimdoni mazkur tarixiy haqiqatni "suv yuziga chiqarib", tepalikni yo'qolib ketishidan saqlab qoldi. Narzulla Yo'ldoshevning tarix oldidagi bu xizmatini "daryordan bir tomchi" deb baholasak, hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

Narzulla Yo'ldoshev sobiq sho'rolar davrida ateizm, dahreniylik, tarixni soxtalashtirish siyosati avj olganiqa qaramay, o'z yo'lidan va qat'iyatidan qaytmadi. Shu yillar mobaynida davriy matbuot nashrlarida "Bu yerlar muqaddas joyalmi", "Zarvaraq yodgorliklar tadqiqoti", "Madaniy merosimiz tarixidan" rukni ostida "Xo'ja Ismat Buxoriy", "Jonajon o'lkamiz tarixini chuqur o'rganaylik" kabi bir qator maqolalarini e'lon qildi. Mahoratlari pedagog va fidoyi olim N. Yo'ldoshevning 14 ta kitob va risolasi nashr qilingan.

Bilamizki, Buxoro shahri va uning atrofidagi 160 ta avliyolik darajasiga sazovor bo'lgan mashoyixlar, olimlar, donishmandlar va shoirlarning qabrlari va qadamjolari mavjud. Ming afsuski, sovetlar hukmronligi davrida viloyat, shahar, nohiya hakamlari "Inqilob" nomi bilan hamda dinka qarshi kurash shiori ostida turli bahonalar bilan qaror va buyruqlar chiqarib, xalq tomonidan

asrlar davomida e'zozlab kelingan ko'pgina avliyolarning muqaddas mozorlari va qabrlarini yer bilan tekisladi. Xalq me'morlari tomonidan asrlar davomida bunyod qilingan muqaddas joylardagi ajoyib arxitektura yodgorliklari bo'lgan maqbara, xonaqohlari, minora va qabrlar vayron qilinadi. Buxoro tarixining zukko bilimdoni, jonkuyar tarixchi olim N. Yo'ldoshevning sa'y-harakati bilan bular tarixi qaytadan o'rganib chiqiladi. Olim ilmiy faoliyatining bir qismini Buxoro shahrida o'tgan avliyolar tarixini o'rganishga bag'ishladi va tom ma'noda o'z shahri uchun katta yaxshilik qildi.

Tashabbuskor va faol jamoatchi olim 1990-yillarda matbuotda quyidagi taklif bilan chiqdi: "Buxoro xalqi o'z madaniy yodgorliklarini necha asrlar ko'z qorachig'iday asrab kelgan bo'lsa, 70 yil ichida ko'pchilik obidalrimiz turli bahonalar bilan vayron qilindi. Tarixning guvohlik berishicha, Buxoroda 200 ga yaqin madrasa, 48 ta karvonsaroy, 18 ta hammom, 86 ta hovuz, 400 dan ziyod masjid bo'lgan ekan. Hozir esa ular barmoq bilan sanarlidir. Ro'znomaning kelgusi sonlarida "Madaniy yodgorliklarni saqlab qolaylik!" mavzusida rubrika olib, unda yodgorliklarning bugungi ahvoli, ularni ta'mirlash ishlarining borishi haqida materiallar berib borilsa, savob ish bo'lardi. Gazetada odob va axloq to'g'risidagi ota-bobolarimiz tomonidan yozilgan qo'llamma kitoblaridan ayrim sahifalarni berib borish tashkil qilinsa, foydadan xoli bo'lmas edi. Buxoroning har bir guzari va ko'chasining nomi VII-X asrlar va undan keyingi davrlardan qolgani hammaga ma'lum. Ko'chalarning uchdan ikki qismi hunar va kasb bilan bog'liq. Mazkur ko'chal tarixiga oid maqolalar ham gazetada yoritilishini istaymiz".

Olimning ushbu taklifi javobsiz qolmadidi. Uning sa'y-harakatlari bilan tarixiy yodgorliklar, uning hozirgi ahvoli, ta'mirlash ishlari, o'rganilish darajasi haqidagi bir qator materiallar chop etilib, ilm-fan ixlosmandlari qo'liga yetib bordi.

Ta'bir joiz bo'lsa, shuni aytish kerakki, olim o'z risolalari va kitoblaridan tushgan mablag'ni muqaddas qadamjolarni obodonlashtirishga sarflagan. Xususan, 1993-yilda nashr etilgan "Bahouddin Naqshband" nomli risolasidan tushgan qalam haqi (13 ming 423 so'mni) Bahouddin Naqshband tarixiy obidasini ta'mirlash hisobiga o'tkazadi. Bag'rikeng insonning bu qadar ochiq ko'ngilligi va saxovatpeshaligi kamdan kam insonlarda uchraydigan bebafo fazilatdir.

Narzulla Yo'ldoshev nafaqat moddiy halollikni, balki ilmda



ham halol bo'lishga da'vat qilar, ko'chirmachilik, taqlidchilikka, ilmdagi soxtakorlikka murosasiz edi. U kishi ilm "igna bilan quduq qazishdek" mehnat, unga har bir kishi o'z qobiliyati va mashaqqati, mehnati bilan erishishi lozim degan qoidaga suyanardi. Nimalarga erishgan bo'lsa, hammasiga o'zining halol mehnati, aql-idroki, zakovati, tinib-tinchimasligi natijasida erishdi. Domla ham hayotda murakkabliklarga duch kelgan, lekin bunday paytlarda nola chekib, fig'oni falakka yetib, shikoyat qilmagan, ularni bartaraf etishning imkoniyatlarini oqillik bilan topa olgan inson.

Narzulla Yo'ldoshev ko'p yillik mehnatlari, fidokorona va sodiq xizmatlari uchun 1980- va 1982-yillarda ikki marotaba "Xalq maorifi a'lochisi", 1985-yili "Mehnat faxriysi", 1992-yili "Mustaqillik" esdalik nishoni, 1994-yili "Shuhrat" medali kabi davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Betakror olim o'zining 80 yillik umri davomida (1926-2005-y) zamondoshlari orasida yuksak obro'e'tiborga ega bo'lди va shogirdlari qalbida o'chmas iz qoldirdi. Halollik va qat'iylikni shior qilib olgan olim O'zbekiston tarixini mahalliy manbalarning qatlarida qolib ketgan "oq dog'lar"ni to'ldirishda, o'tmishni rangin lavhalarini aholi orasida keng targ'ib qilishda ozmuncha ter to'kmadi. Fors-tojik va o'zbek tillarida birdeq o'qib, yoza oladigan olimning ilmiy va ma'naviy merosi bugungi avlodni komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

**Shavkat BOBOJONOV,**  
Nizomiy nomidagi  
Toshkent davlat pedagogika  
universiteti dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

# Ko'nglim

## shoirini yo'qotishni istamadi



Bolaligim keng dashtlarda o'tgan. Bosh-adog'i ko'rinnmas dalalarda yugurib, qo'shiq kuylab katta bo'lganman. Uzumzorning o'rtasidan ikki qavatli chayla qurib, osmon bilan suhbat qurib yotgan kezlarim, oylab ham qishloqqa qaytmasdim. Negadir menga shu dalalar suyukliroq edi. Bola ko'nglim tabiatni, qushlarni xush ko'rardi.

Bir oqshom uyga borsam, televizorning ustida ikkita kitob turibdi: Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo. Ilk bor adabiyotga, she'riyatga qiziqishimga mana shu kitoblar sabab bo'lgan, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Kitoblarni Farrux akam olib kelganini aniq bilaman, akam hamma narsani sizdan ayamasligi mumkin, jonini ham beradi, faqat kitobini emas. Akam ham she'rlar mashq qilib yurgan kezlar edi (*har holda davomiy yozganida mendan yaxshiroq shoir bo'lardi*). Xullas, ikkala kitobni ham oldim-u, darvozadan qaytdim, ikkisini ham olib ketsam, ertaga holimga maymunlar yig'lashi aniq. Sekingina Muhammad Yusufning kitobini joyiga qo'yib, dala tomon juftakni rostladim.

Dala qorong'i, kitobni o'qishni judayam istayapman. U paytlar dala tugul qishloqning o'zida ham tunlari chiroq yonishi amrimahol edi. Tong otgach esa kitobni olib qo'yishidan judayam qo'rquqdim. Akam kitobni shunchaki olib qo'yaydi, so'ramay olganim uchun ta'zirimni yeyishim aniq. Xullas, ichim qizib ketdi, tonggacha sabrim yetmasligi tayin. Onam kechalari dalada shaqallar ko'p bo'ladi, deb doim cho'ntagimga gugurt solib qo'yardi. Menga yaqinlashsa, yoqib u tomonga tashlasam, qochib ketarmish. Gugurtni oldim-u, tutqator ariqning bo'yiga cho'p to'dalab, yoqa boshladim. **Gulxanning yorug'ida kitobni ochdim.** Kitob "Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?" nomli she'rdan boshlanardi, adashmayotgan bo'lsam. She'rlar she'rga ulanib, o'zimni shoir o'rniga qo'yib aytta boshladim:

**"Kaptarlar bir-birin sevib quchishdi,  
Xayolim sen tomon qush bo'lib uchdi.  
Seni olib ketdi qaysi daryolar,  
Hamrohing bo'ldilar qanday sabolar?"**



Hozir yodimda boricha yozyapman-u, o'sha paytdagi hayajonim, beg'uborligimni nechog'li ifoda etolyapman yoki yo'q, bilmayman. Kitobni bir kechada o'qib chiqdim, sevib o'qidim. Ilk bor she'r yozish haqida o'ylagan kecham ham o'sha tun edi. Yulduzlarga uzoq termildim, shoir bilan xayolan suhbat qurdim. Tongotarda ko'zim ilinib, uxbab qolibman. Aytganiddek, akam kitobini qidirib, yonimga keldi. Kechagidek yodimda, bog'imizda bir tup qora kishmish uzum bo'lardi, o'sha uzumni mo'ljal qilib yashirib qo'ygandim kitobni. **"Ko'rganim yo'q, aka, kitobingizni, boshqa birov olgandir"**, dedim. Akam ishonqiramay, to'shagimni ag'darib ko'rda, yo'qotganini atib, ugya ketdi.

Kitobdagagi hamma she'rni yod olmasdan ugya qaytish yo'q, dedim ichimda. Agar yod olmay borsam, akam kitobini tortib olib, menga bermay qo'yadi. Dalada eng uzoq vaqt yashaganim ham o'sha kitobni yashirib yurgan paytlarga to'g'ri keladi. Ehhe, mening qancha maktublarim qamishi chaylamining burchaklarida qolib ketdi. Bir maktubdan yodimda qolgan so'zlarni keltiray: **"Iqbol Mirzo, ustoz, kitobingizni o'qidim, men siz bilan uzoq suhbat qurishni istayman. Menga ham she'r yozishni o'rgating. Ko'p kitoblariningizdan bering. Maktabni tamomlasam, albatta, sizni topaman, kitobingizni yoddan aytib beraman".** Bolalarcha bitilgan bu maktublar ichida zig'ircha yolg'oni yo'q edi. O'nlab bunday maktublar bitganim yodimda.

**Muhabbat, bu yalt etgan nigoh  
Va halovat abas, degani.  
Muhabbat, bu o'zingni sevmoq  
Va o'zgaga havas degani.**

Bola edim, kitobdagagi so'zlar raqsini ko'rib, hayratim oshgandan oshardi. Muhabbatning havasi ko'nglimning tub-tubidan uyg'onib, qishloqning u burchida yashovchi chiroysi qizning sochlari haqida o'ylaganim ham bor gap. Lahzada oshiq, lahzada sevganidan ayrilgan yigit rolini o'ynardim. U qizga esa sevgi izhor qilib ayrilish rejasini ham tuzib qo'ygandim. Xayrashib ketarchog', **"Men qaytib kelmayman tushunyapsanmi, axir men bittaman, yagon yolg'iz"**, deya mardonha ketayotgan shoir obrazida bo'lardim. Kitobni to'liq yod olganimdan so'nggina kitobning daragini akamga aytdim. Bir sevinib, bir mendan jahli chiqqan akam ancha urishib bergandi o'shanda.

Oradan yillar o'tdi... Toshkentga kelib, "Sharq yulduzi" jurnalida ishlay boshladim. Ikki oycha ishlaganimdan so'ng akam Mansur Jumayev tashabbusi bilan "Jadid"

gazetasida ish boshlaydigan bo'ldim. O'zimda yo'q xursandman, ishga qabul qilinganim bir taraf bo'lsa, gazetaning bosh muharriri Iqbol Mirzo ekani bir tomon edi. **Bolaligim qahramonining yonginasida yursam-a...**

Suhbatga kelgan ilk kunim ish haqi, boshqa narsalar haqida sira o'ylaganim yo'q, men faqat hayratda qolganman: bolalikning orzusi ushalgan kun, she'rlarini sevib o'qiganim, tirik ijodkorni ko'rib turibman. Faqat "xo'p" deganim yodimda. Qolganini hozir ham eslay olmayman. Shoir bilan yonma-yon ishlay boshladim. Bu orada bilimsizligim anchayin pand berdi. Hamkasb akalar, do'stlar ko'magi bilan ish o'rgandim. Shoирга esa haddim sig'ib lom-mim deya olmadim, she'r yozishimni ham aytganim yo'q. Salom-alikdan nariga o'tolmadim. Har ne bo'lganda ham shunday dargohda, ustozlar yonida ishslash ko'nglimga o'zgacha quvonch berardi.

Doim yoningizga borib suhbat qurgim, bolaligim haqida, she'rlarining haqida so'z ochgim kelardi. Negadir haybatingiz bosdimi, bilmadim, yoningizga yo'lagan emasman. To'qqiz oy shu dargohning oshidan totdim, qolganiga rizqim qo'shilmagan ekan. Yoshligimdan gap ko'tara olmasligim bor, boshqaga aytilgan gaplar ham menga kelib tegaveradi. Qaysidir ma'noda shular ham sababdir. Ammo asosiy sabab bu emas, **mening bolaligim she'rlariga qo'shilib ulg'aygan Shoirimni yomon ko'rib qolishni istamadim.** Arizamni yozdim, ishdan ketdim.

Men bugun ham o'sha bolalikni sog'inaman, kitobini qo'ltiqlagancha ariq yoqasida uxbab qoladigan bolakay bo'lib qolqim kelaverdi. Imkon yo'qligini, o'sha chaylalarda ortiq yashayolmasligimni, bilsam ham, sog'inaveraman. Iqbol Mirzo she'rlari esa o'sha olis bog'lar, uzumzorlarga olib ketadi. **Mana, nima uchun ko'nglim shoirini yo'qotishni istamaydi, axir bu she'rlarda bus-butun bolaligim bor...**

### IQBOL MIRZOGA

*Ko'nglim daryo edi, tog' edi ko'nglim,  
G'arq pishgan uzumzor – bog' edi ko'nglim.  
Olis dalalarda tanho bir o'zim,  
Kechalarim she'rlri, chog' edi ko'nglim.*

*Yupqa jild kitobni bag'rimga bosib,  
Yoddan aytar edim so'zboshigacha.  
O'sha tun eng go'zal she'r rimni yozib,  
Eng baxtli kunlarni qo'yanman yashab.*


*O'sha dalalardan uyg'oq xotira,  
Kuy oqqan dilimda she'r edi tanho.  
Sutday oq tunlarim tushimga kirar,  
Sog'inch ranglarida Men, "Iqbol Mirzo".*

*Meni afyu eting, ertaga tamom,  
Bormizmi, yo'qmizmi – yillar to'zonli.  
Ertaga ham so'zi qolajak omon,  
Sevib o'qishadi Iqbol Mirzoni.*

**Muhammadali G'AFFOROV,  
"Vatanparvar"**

"Jadidlarning ma'nnaviy qahramonligi" tanloviga

**Jadidchilik – bu oddiy ma'noda oqim emas, balki keng qamrovli ijtimoiy, siyosiy va ma'rifiy harakat.** Yaqin yigirma yillik tarixshunoslikda u ko'p hollarda faqat ma'rifatparvarlik doirasida talmiq qilinib kelindi. Bunday yondashuv asosan sovet mafkurasi ta'sirida shakllangan bo'lib, jadidchilikning doirasini sun'iy ravishda toraytirish, uni faqat madaniy soha bilan cheklashga xizmat qilgan. Bu esa sotsialistik mafkuradan boshqa g'oya va harakatlar xalq ongiga chuqur singib keta olmasligi lozim degan yolg'on tamoyilning mahsuli edi.



Haqiqiy tarixiy manbalar va harakatning amaliy faoliyati esa butunlay boshqacha manzarani ochib beradi. Jadidchilik:

- jamiyatning barcha qatlamlarini o'ziga jalb eta oldi va uyg'onish mafkurasi sifatida xizmat qildi;
- mustaqillik g'oyasini ilgari surdi va bu yo'lda siyosiy kurash olib bordi;
- Turkiston muxtoriyati uning dastlabki amaliy natijasi bo'ldi;
- maorif, madaniyat va matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga xizmat qildirishga intildi.

Turkistonda jadidchilik harakati XIX asrning 80 yillarda Rossiya musulmonlari, ayniqsa Kavkaz va Volgabo'yı hududlarida shakllangan islohotparvar g'oyalarning ta'siri ostida vujudga keldi. Ismoilbek Gasprali tomonidan 1883-yilda nashr etilgan "Tarjimon" gazetasi va 1884-yilda asos solingen "Usuli jadid" maktabi bu harakatning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Bu jarayon, o'z navbatida, mahalliy aholi orasida mavjud bo'lgan eski mabkab va madrasa tizimiga nisbatan norozilik kayfiyatları, yangilanishga ehtiyoj bilan uyg'unlashib bordi.

"Jadid" atamasi faqatgina bizda emas, balki Turkiyada ham XX asr boshlaridagi adabiy yo'nalishlardan biri sifatida ishlatalgan. Shuningdek, "Rossiya jadidchiligi", "Buxoro jadidchiligi", "Turkiston jadidchiligi" kabi turli atamalar mavjud. Biroq bu farqlanishlar ko'rinishda bo'lib, mohiyat bir – bu yangilanish harakati. U har bir mintaqada o'ziga xos tarixiy, siyosiy va madaniy sharoitlarga qarab namoyon bo'lgan.

Turkiyadagi "Tanzimat" islohotlari (1839-yilda Mustafa Rashid Posho tomonidan e'lon qilingan "Gulxona

farmoni") bu yangilanishning ilk namunalaridan biri bo'ldi. G'arb ta'siridagi modernizatsiyaga qarshi javoban "turkchilik", "usmonchilik", "islomchilik", "turonchilik" kabi mahalliy g'oyalar shakllandi. Turkistonda ham Yevropa madaniy yutuqlaridan foydalanish zaruriyatı chuqur anglangan bo'lsa-da, bu jarayon mahalliy din va qadriyatlarni saqlab qolish asosida olib borildi. Jadidlar aynan shu muvozanatni ta'minlashga harakat qildi.

Shu bilan birga, Turkiston jadidchiligi Kavkaz, Volgabo'yı yoki Turkiya tajribasidan farqli ravishda an'analarga kuchli bog'langan edi. Yevropa ijtimoiy-madaniy jarayonlariga moslashish murakkab kechdi. Har qanday yangilik qabul qilinishi uchun uzoq va og'ir jarayonlar orqali o'tardi. Bu esa mahalliy ziyorolar zimmasiga ikki barobar mas'uliyat yukladi: tarixni chuqur bilish, uni xalq ongiga yetkazish va eng muhim – uni tiklash yo'llarini izlash.

Tarix – bu shunchaki voqealardan xabardor bo'lish emas, balki xalqni o'zligiga qaytaruvchi, iibrat va tarbiya manbai bo'lmog'i kerak. Bu jarayon esa jadidlar faoliyati orqali amalda isbotlangan.

Tarixni o'rganish faqat o'tmishdan xabardor bo'lish emas, balki zamon talablari va milliy ehtiyojlarga munosib g'oya va harakatlarni shakllantirish vositasidir. Shu bois jadidlar o'z faoliyatlarida faqat tarixiy tafakkur bilan cheklanib qolmadı. Aksincha, ular tarixiy xotirani tiklash orqali millatni harakatga chorlaydigan, o'zligini anglashga olib keladigan milliy mafkura konsepsiyasini ishlab chiqishga intildi. Bu mafkura millatning

tabiiy xususiyatlari, aqliy-ma'nnaviy salohiyati, ehtiyoj va imkoniyatlari mos ravishda qurilishi kerak edi.

Jadidlar milliy ideallarni belgilash, unutilgan tarixiy shaxslarni – fan, din, harbiy sohalardagi buyuk allomalarni, shoir va ijodkorlarni tanitish orqali, milliy ong va qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qildi. Zero bu shaxslar millatga xos sabr, shijoat, zakovat va g'ururni timsollashtirgan edi. Shunday qilib, tarix, qadriyatlar, urf-odatlar, din va marosimlar milliy birlikning negiziga aylantirildi.

Turkiston jadidlarining milliy-siyosiy harakatlardagi faol ishtiroki bunga yaqqol misoldir. Tadqiqotchi R. Abdullayev o'zining "Islam dunyosidagi hamkorlik jarayoni va Turkiston jadidlari" nomli maqolasida Turkistonlik ziyyolilarning Rossiya musulmonlari bilan birgalikda umumiy siyosiy kurashga qo'shilganini tahlil qiladi. Bu jarayon XIX asrning 80-yillarda boshlangan bo'lib, 1905-yildagi siyosiy vaziyat ta'sirida aniq shakl va mazmun kasb eta boshladi.

1905-yilda Rossiya musulmonlari o'rtaida tuzilgan "Ittifoqi musulmin" jamiyatini ana shu umumiyy kurash natijasi edi. Uning asosiy maqsadi – musulmonlarning siyosiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, milliy o'zlikni anglash, din, til va urf-odatlarni saqlab qolish edi. Biroq Ismoilbek Gasprinskiy va Alimardonbek To'pchiboshev jamiyatning dastlabki yig'inlarini ehtiyyotkorlik bilan baholadi. Ular bu yig'in xalq ongini va darajasini mezon qiluvchi dastlabki majlis" bo'lib qolishini, ijtimoiy-demokratik maydonga tushmasligini ma'qul ko'rди. Shunday bo'lsa-da,

bu tarixiy majlisda Abdurashid Ibrohimov, Yusuf Oqchura kabi yetuk mutafakkirlar qatnashdi.

Yig'ilishda Ismoilbek rais, Alimardonbek va Abusaidmirzo muovin etib saylandi. Asosiy masala sifatida "Ittifoqi musulmin" jamiyatini rasman tuzish, uning nizomini ishlab chiqish, barcha viloyat va mintaqalarda, jumladan Turkistonda ham shu'balar ochish masalalari muhokama qilindi. Nizomni ishlab chiqish vazifasi Alimardonbek To'pchiboshevga topshirildi.

1906-yil 19-23-yanvar kunlari Sankt-Peterburgda chaqirilgan 11-sezd muhim siyosiy tadbir bo'lishiga qaramay, norasmiy va shoshilinch tarzda tashkil etilgani sababli kutilgan natijalarni bermadi. Ig'vogar unsurlar yig'ilishga kirib, muhokama jarayonini buzishga erishdi. Gasprinskiy yig'inni tark etdi. Biroq bu sezdda qabul qilingan 23 bandlik nizom tarixiy ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Unga ko'ra, Rossiyadagi musulmonlar etnik va hududi asosda 16 ta tumanga bo'linib, har birining markazida kengashlar tashkil qilinishi belgilangan edi.

Bu voqealari jadidlar tomonidan qizg'in qabul qilindi. Mahmudxo'ja Behbudiy "Xayrul umuri avsatuxo" maqolasida ushbu majlis va qarorlarni muhim voqelik sifatida tilga olgan. Shu yili – 1906-yilning 16-avgustida Nijniy Novgorodda navbatdagi sezd o'tkazildi. Bu safar ham siyosiy bosim sababli yig'in osuda o'tmadi. Ayniqsa, Davlat Dumasidagi musulmon fraksiyasining faolligi chor matbuotining tanqidiga uchradi. Ushbu yig'inda partiyaning yangi,

# — TARIXIY ONG, MA'NAVIY KURASH VA MILLIY TARAQQIYOT YO'LII



75 moddalik dasturi ko'rib chiqildi va ta'lif sohasiga oid 23 moddalik qaror qabul qilindi.

"Ittifoqi musulmin" markaziy qo'mitasi tarkibiga 31 a'zo saylangan bo'lib, ular orasida Ismoilbek Gasprinskiy, Abdurashid Ibrohimov, Alimardonbek To'pchiboshev, Yusuf Okchurin kabi mashhur shaxslar bor edi. Biroq Behbudiy ta'kidlaganidek, Turkistondan faqat bitta a'zoning saylangani 6 millionlik musulmon aholining vakillik huquqi nuqtayi nazaridan yetarli emas edi.

Behbudiy bu holatni o'z maqolasida keskin tanqid qilgan holda, besh viloyat, Buxoro, Xiva va hatto Turkiston Chinidan ham vakil bo'lishi lozimligini ilgari surgan. Uning fikricha, bunday vakillik diniy, ilmiy va madaniy masalalarda muhim qarorlar qabul qiluvchi komitetlar faoliyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi zarur edi.

XX asr boshlarida jadid matbuoti sahifalarida amaliy axloq muammolari keng yoritildi. "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", "Ulug Turkiston", "Turon", "Xurshid" kabi nashrlarda e'lon qilingan hajviv va publitsistik maqlolar orqali chor ma'muriyatining mustabid siyosati, ijtimoiy adolatsizliklar, diniy-ma'naviy qoloqlik va axloqiy tanazzul tanqid qilindi. Jumladan, bu nashrlarda paranjining zamonaviy talabga mos kelmasligi, talabalar uchun ajratiladigan mablag'lar foishaxona va bazmlarga sarflanayotgani kabi muammolar dadil fosh etildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon kabi ziyojolar o'z badiiy va publitsistik asarlarida axloqiy inqirozga sabab bo'layotgan omillarni ochib berdi. Jadid matbuoti xalqni ozodlik, ilm, hurriyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni o'zining asosiy maqsadi deb bildi.

Jadidlar jamiyatni xurofot va qoloqlikdan chiqarish, maktab-madrassalarni isloh qilish orqali dunyoviy fanlarni o'qitishni yo'lg'a

qo'yish g'oyasini ilgari surdi. Bu islohotlarda ular shariatga sodiqlikni saqlagan holda, zamon talablari bilan uyg'unlikni ta'minlashga intildi. Turkistonda jadidchilik, dastlab madaniy-ma'rifiy harakat sifatida boshlangan bo'lsa-da, tez orada islohiy va siyosiy harakat darajasiga ko'tarildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy" (1906) asarida madaniyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rsatgan. U jamiyatni uch bosqichga - vahshiylilik, badaviylik va madaniylikka ajratib, har birining xususiyatlarini tavsiflaydi. Behbudiy madaniyatli jamiyatni ilm, hunar va din asosida qurish zarurligini ta'kidlaydi.

Jadid matbuoti jamiyatni modernizatsiyalashda maishiy hayotdagi islohotlarga alohida urg'u berdi. To'y-marosim, ta'ziya, ko'pkari va boshqa urf-odatlarga ketayotgan ortiqcha mablag'lar, aholi orasida savodsizlikning kengligi va yoshlarning ilmg'a e'tiborsizligi kabi holatlar dadil tanqid qilindi.

Mahmudxo'ja Behbudiy behuda odatlarni iqtisodiy tanazzul sababi sifatida ko'rsatib, to'y va ma'rakalarni isrofsiz hamda ixcham o'tkazishni, ortiqcha mablag'n'i esa bolalarni o'qitishga, maktab va madrasalarni ta'mirlashga yo'naltirishni taklif etadi. U Qur'on va hadislar asosida, bu odatlarning nojoizligini dalillab beradi.

Munavvarqori Abdurashidxonov esa xalq orasidagi illatlarini - bo'zaxo'rlik, qimorbozlik, bachchavozlik, yallochilik, ilmga e'tiborsizlik va savodsizlikni xalq taraqqiyotiga to'siq bo'luchni omillar sifatida baholaydi. U millatning kuchli farzandlari choyxona va pivaxonalar atrofida vaqtini behuda sarflayotganidan achinib yozadi.

Abdulla Avloniy fikricha, moddiy jihatdan taraqqiy qilmagan millat ma'naviy yuksalishga ham erisha olmaydi. Uning ta'kidlashicha, "Hozirgi zamonda jasorat - boylikda, davlat va millatning qudrati ilm va iqtisodga tayanadi".

Avloniy xalqni boshqa madaniyat xalqlardan o'rnak olishga, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashga, ilm, hunar va tafakkurga asoslangan turmush tarzini shakllantirishga chorlaydi.

XX asr boshlarida madaniyat to'lqinlari Turkistonga kirib kelayotgan bir paytda, isrof va bid'atlarga berilib borayotgan xalq holatidan g'oyat tashvishga tushgan



ma'rifatparvar ziyoli Abdulla Avloniy o'zining qat'iy takliflarini ilgari surdi. U madaniy rivojlanishga erishish uchun, avvalo, yoshlar orasidan ilmi, diniy va madaniy yetuk shaxslarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya sohasida mohir muallimlar, adabiyotda salohiyatlari adib va adibalarning yetishib chiqishi lozimligini ta'kidlaydi.

U mакtab va madrasalarda muntazamlikni yo'lga qo'yish, ziroat, sanoat va savdo sohalarida malakali mutaxassislarini yetishtirish, zamonaviy yetimxonalar, kambag'allar uylari, kutubxonalar, qiroatxonalar ochish va ularga asos solish, ilm-fan yutuqlaridan xabardor ulamolar safini kengaytirish zarurligini qayd etadi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning hayotini yaxshilash, axloq va odob masalalariga e'tibor qaratish orqali, jamiyatni haqiqiy madaniyat sari yetaklash mumkinligini uqtiradi. Avloniy nazarida, bu yo'l orqaligina Turkiston xalqi eskicha qoloqlikdan chiqib, "madaniyat bo'stoni" sari qadam qo'yadi, "madaniyat to'lqinlардан xalos bo'lib, salomatlik sohiliga yetadi".

Shu bilan birga, Rauf Muzaffarzoda xalq orasida islam dini qat'ian man etgan illatlar - ichkilikbozlik, qimorbozlik, zino kabi zararli odatlarni keng tarqalib borayotganidan ogohlantiradi. U bunday illatlar nafaqat alohida shaxslar, balki butun avlodlar va oilalarni zaharlab, halokatga olib borishini qat'iy ta'kidlaydi. Ayniqsa, ozgina moddiy foyda evaziga jamiyatni buzayotgan shaxslarni u "millat mikroblari" deb ataydi va ularning faoliyatini "millat tanasiga singayotgan halokatli virus" sifatida baholaydi.

Ziyolilar uchun asosiy vazifa - ana shunday illatlarga qarshi

ma'naviy-ma'rifiy kurash olib borish, jamiyatni sog'lomlashtirishga xizmat qiluvchi g'oya va qadriyatlarni ilgari surishdan iborat edi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jamiyatining ma'naviy uyg'onishi, siyosiy faollahuvni va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynagan tarixiy hodisadir. Bu harakat o'z mohiyati bilan faqat ma'rifatparvarlik emas, balki xalqni o'zligini anglashga undovchi, milliy ongni uyg'otuvchi va jamiyatni isloh qilishga qaratilgan kompleks ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy kurash shaklida namoyon bo'ldi.

Jadidlar diniy an'analarni saqlagan holda, ularni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga, xalqni savodsizlik va xurofotdan xalos etishga, ayollar ta'limi, axloqiy yuksalish, iqtisodiy mustaqillik va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini ilgari surishga intildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ziyojolar jadidchilik mafkurasining asosiy g'oyaviy poydevorini yaratibgina qolmay, uni amaliy harakatga aylantira oldi.

Jadid matbuoti, teatr, maktab, adabiyot va risolalar orqali olib borilgan islohotlar zamonaviy milliy tafakkur shakllanishiga xizmat qildi. Ularning faoliyati qisqa davom etgan bo'lsa-da, jamiyatda chuqur iz qoldirdi, yangi avlodlar uchun g'oyaviy asos yaratdi.

Shu sababli jadidchilik harakatini tarixiy voqeя sifatida emas, balki bugungi taraqqiyot va ma'naviy yuksalish uchun muhim ibrat maktabi, g'oyaviy manba sifatida baholash lozim.

**Sanjar AHMEDOV,  
Oriental universiteti  
dotsenti v.b.,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.  
Kichik serjant Abbosxon  
SAFARALIYEV**

# Тавсиyanoma – MUHIM IMTIYOZ



Mudofaa vazirligi markaziy apparatida harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozi tavsiyanomani topshirish marosimi o'tkazildi. Tadborda Mudofaa vazirligining mas'ul ofitserlari, harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida, har yili harbiy xizmatchilarning farzandlariga 5 foizlik maxsus kvota doirasida tavsiyanomalar taqdim etiladi.

Mazkur tavsiyanomalar jangovar-xizmatda va ilmiy faoliyatda yuksak natijalarga erishgan, mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan, xizmat burchini sidqidildan bajarayotgan ofitserlar, serjantlar, oddiy askarlar va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning farzandlariga beriladi. Nomzodlar komandirlarning bevosita tavsiyasi asosida tanlab olinadi. Shundan so'ng tavsiyanoma olgan harbiy xizmatchilarning farzandlari test sinovlari

orqali o'zaro raqobatlashib, eng yuqori ball to'plaganlar oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinadi.

Ushbu imtiyoz umumiy abituriyentlar uchun ajratilgan kvotalaridan alohida tarzda belgilanadi. Bu esa harbiy xizmatchilarning oilalariga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir isboti bo'lib xizmat qiladi.

– Mirzo Ulug'bek tumanidagi 338-maktabning 11-sinfini bitiryapman, – deydi polkovnik Lochinbek Latipovning qizi Nilufar Abdulhamidova. – Dadamning kasbiga bolaligimdan havas qilaman. Shu bois "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatiga a'zo bo'ldim. 2024-yili Olmaota shahridagi Quruqlikdagi qo'shinlar harbiy institutida o'tkazilgan "Aybin" xalqaro harbiy-vatanparvarlar yig'inida

O'zbekiston Mudofaa vazirligi termo jamoasi safida men ham ishtirok etdim. Bir hafta davom etgan bellashuvlarda jamoamiz Rossiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Belarus Respublikalari hamda mezbon davlatning 42 ta jamoasi bilan bellashib, faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdik. Bugun men uchun katta shodiyona. Dadamning harbiy xizmatdagi fidokorona faoliyati natijasida menga berilgan bu ishonchni oqlab, kelajakda yurtimiz ravnqaiga munosib hissa qo'shaman.

Tadbir yakunida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining konsert dasturi tadbir ishtirokchilariga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,**  
"Vatanparvar"



## Mulohaza

Hurmatli opa-singillar,  
bir lahza ko'z oldimizga  
keltiraylik: tong sahar hali  
tabiat ham uyg'onmay  
turib, siz yuragingizda  
chuqur hayajon va duo  
bilan turmush o'rtog'ingizni  
xizmatga kuzatyapsiz.  
Uning uzoqlashayotgan  
har bir qadami qalbingizga  
muhrlanib boraveradi.  
Har bir qarashi – yurakning  
eng nozik torlarini chertib  
o'tadi. Chunki u nafaqat  
farzandlaringiz otasi,  
oilangiz sohibi, balki  
u Vatanning qalqoni,  
ishongan tog'i hamdir. U  
Vatan oldidagi burchini  
hayotidagi oliy maqsadi  
deb biladi.



# Harbiyning ayosi

## BO'LISH MAS'ULIYATDIR

"Vatan uchun joniofido!" Bu so'z uning  
uchun shior emas, balki hayot falsafasidir.  
Bu ibora uning nafasiga, tafakkuriga singib  
ketgan. Asli bu so'z – oddiy so'z emas, ayni  
haqiqat.

Afsuski, harbiylarning ayollari  
orasida turmush o'rtog'ining kasbini  
tushunmaydiganlar ham uchraydi.  
Ularga shunday gapimiz bor: turmush  
o'rtog'ingizning xizmatini oddiy ish  
deb qabul qilayotgan bo'lsangiz, birzum  
mulohaza qilib, o'ylab ko'ring: u sizning,  
bizning, jamiyki xalqning tinchligini  
saqlash uchun oromidan kechadi, bu yo'lida  
kerak bo'lsa, aziz jonini fido qiladi. Chunki  
harbiy burch – faqat vazifa emas, balki  
og'ir mas'uliyat, gohida esa sukat ichidagi  
fidokorlik. Unga oila davrasida kam bo'lasiz,  
deb ta'na qilishingiz noo'rin. Negaki, u har  
qanday sharoitda va kunning har qanday  
vaqtida muhim topshiriq olgan va uni  
barajarish uchun yo'lda otlangan bo'lishi  
mumkin.

Siz esa buni bilmaysiz. Agar oila  
boshlig'ingizni har qanday vaqtida sevgi,  
ishonch va duo bilan yo'lda kuzatsangiz – u  
buni his qiladi, bundan cheksiz quvvat oladi.  
Va bu his tufayli uyg'a qaytish uchun yanada  
qat'iyroq bo'ladi. Zero harbiyning ruhiy  
tayanchi uning oilasi, uning aqli, sabrli va  
g'ururli rafiqasidir.

### Baxtingizni yo'qotib qo'y mang!

Bir yosh oila bor edi. Er harbiy, ayol  
esa uybekasi. Erkak xizmati sabab ba'zida  
to'y-hasham, tug'ilgan kun, hatto oilaviy  
tadbirlarda ham ishtirok etolmasdi.  
Yillar davomida bunday holatlar ko'p  
takrorlandi. Kunlardan bir kun, ayolning  
sabr kosasi to'ldimi yoki bu turmush tarzi  
uni qoniqtirmay qo'ydimi, eriga "portladi":  
"Qachongacha shunaqa yashaymiz? Qachon  
biz ham oilaviy biror joyga aylanishga  
chiqamiz? Shunday hayot tarzidan  
zerikmadingizmi? Yuraverasizmi o'sha  
xizmatgizda?"

Er xizmatdan juda charchab kelgan edi.  
Xotinining gapidan asablari taranglashgan  
bo'lsa-da, o'zini bosdi. Yumshoq ovozda  
"Onasi, ozgina sabr qiling, hammasi  
siz o'ylagandan ham ziyoda bo'ladi",  
deb xotinini yupatishga tushdi. Keyin  
charchaganidan ovqatini ham yemay,  
oshxonada uxbab qoldi. Erta tong uyg'onib,  
ko'zini ochdi. Usti yopilmagan va hech  
kim uni uyg'otib, joyingizga kiring ham  
demagan. O'midan turib, yuz-qo'lini yuvib  
qarasa, hali choy ham tayyorlanmabdi. Jahli  
chiqsa ham indamadi. Qorni och xizmatga  
ketdi va shu tariqa yana kunlar o'ta boshladи.

Bir kuni u xizmatdan barvaqt keldi.  
Xursandchilik bilan ostona xatladi va:  
"Onasi, mana, barvaqt keldim. Yur, bugun  
ikkalamiz bir bozor aylanamiz. Birollar  
yaxshiroq joyga kirib ovqatlanib, kunni birga  
o'tkazamiz. Qani, yura qoll!" deb ayoliga  
mulozamat qildi. Ayol esa o'sha-o'sha  
jahdan tushmagandi. Shuning uchun eriga  
qo'pol muomala bilan "Ana kerak bo'lsa,  
o'zingiz borib aylanib kelavering", deb javob  
berdi. Er indamadi, bir o'zi g'amgin ko'chaga  
chiqdi-da, oyoqlari qayerga boshlasa, o'sha  
tomonga qarab yurdi. Bir necha soat yayov  
yurib, charchagancha uyg'a qaytdi. Ayoli  
uni yana jahl bilan kutib oldi. Usiz ko'chaga  
chiqib ketganini ta'na qilib, yozg'ira  
boshladi. Er indamadi. Shu tobda telefonini  
jiringlab qoldi. Ufaqatgina "Ha, xo'p bo'ladi,  
xuddi shunday" degancha telefonini o'chirdi  
va kiyimlarini almashtirib, uydan chiqdi.  
Juda tezlik bilan darvoza yoniga bordi-yu,  
birpas to'xtab qoldi. Keyin ayoliga bir qarab,  
"Onasi, men seni, farzandlarimni juda qattiq  
yaxshi ko'raman, men uchun hamisha duoda  
bo'lgin", deb siniq jilmaydi. Yana nimadir  
demoqchi bo'ldi va fikrini davom ettira  
olmadи. Ayoli esa erining holatiga e'tibor  
ham bermadi. Qaytanga, "Bo'pti, boring,  
o'sha yerda qolib keting! Sizni boringiz  
ham yo'g'ingiz ham bilinmaydi", degancha  
burilib uyg'a kirib ketdi...

Tong otdi. Ayol uy yumushlari bilan  
band edi. Unga eridan juda ko'p bora  
qo'ng'iroq bo'ldi, ammo ayoli parvo ham  
qilmay, ishida davom etdi. Ataylab telefoniga  
javob bermadi.

Kech tushdi. Soat 23.00 ni ko'rsatardi.  
Erkakdan darak bo'lindi. Ayolning yana  
jahli chiqa boshladi. Erining biror tanishi  
bilan kafeda o'tirishga ketganini o'zicha  
taxmin qilib, xunob bo'la boshladi.

Tun. Soat ikki. Ayol jahl bilan eriga  
qo'ng'iroq qildi. Telefon o'chiq edi. Sabri  
chidamay, erining ishxonasiga qo'ng'iroq  
qildi. Telefonni yosh yigit ko'tardi. Fig'oni  
falakka chiqqan ayol birdan baqira ketdi:

– Soat necha bo'ldi? Qayerda yuribsi, nega  
telefoningiz o'chiq?! Ayolning gapi  
tugashini kutib turgan yigit birdan yig'lab  
yubordi. Birozdan so'ng o'zini qo'lga oldida,  
"Kelinoyi, eringiz juda og'ir ahvolda  
bo'lsa-da, sizga qayta-qayta qo'ng'iroq  
qilishimni ko'p bora so'radi. Faqat sizni va  
farzandlaringiz ismini takrorladи. Men sizga  
ko'p marta telefon qildim. Eringiz telefoniga  
sizni "Oilam malikasi" deb saqlagan ekan,  
ketdi va shu tariqa yana kunlar o'ta boshlagan.

shundan topdim sizning nomeringizni.  
Hozir u kishi gospitalda – jondantirish  
bo'limida yetibdi... Sizga hech narsa deya  
olmayman. Shifokorlar ahvoli o'ta og'ir deb  
aytishdi, dedi-yu, go'shakni qo'ydi.

Ayol karaxt bo'lib, bir necha daqiqa joyida  
qotib qoldi. Shu kunga qadar eriga qilgan  
muomalasi birma-bir xayolidan o'tdi. Axir  
bugun ishga ketayotganida "Boring ham,  
yo'ging ham biliimaydi, qaytib kelmasang  
ham mayli", deb aytmaganmidি! Ayol shu  
gapini eslab, o'kirib yig'lab yubordi...

Bu paytda uning eri gospitalda jon  
talashib yotar edi. Juda og'ir ahvolda bo'lsa  
ham, faqat ayoli va oilasini oxirgi marta  
ko'rishni so'rab, ularni ko'p bora tilga oldi.  
Lekin yigitning vujudiga ulangan apparat  
tovushi to'xtab, uning joni uzildi. Yana  
bir vatanparvar mard o'g'lon, manguga  
bu dunyonи tark etdi. Shogird yigit uning  
so'nggi gaplarini telefonga yozib olgan  
ekan. Qo'llari qaltiragancha, zo'rg'a ushbu  
ovozi xabarni marhumning ayoliga jo'natdi.

Oshxonada karaxt holatda o'tirgan  
ayolning telefoniga kelgan xabar, uni biroz  
o'ziga keltirdi. Ochib ko'rди, turmush o'rtog'i  
ovozi xabar jo'natibdi.

Shoshib xabarni eshitga boshladi.

"Onasi, oilamning malikasi, umrimning  
mazmuni, farzandlarimning suyukligi! Men  
seni joniomdan ortiq sevaman. Balki, senga  
keragicha g'amxo'rlik qila olmagandirman,  
balki, ranjitib dilingni og'ritgandirman.  
Buning uchun meni kechir! Ammo vaqt  
kelib, meni albatta tushunasan va mendan  
rozi bo'lasan, deb umid qilaman. Birgina  
armonim – ovozingni oxirgi marta eshitish  
va farzandlarim diydori hamda go'zal  
tabassumingni so'nggi bor ko'rish nasib  
etmadи. Onasi, o'g'limiz katta bo'lganida, bu  
xabarimni unga, albatta, qo'yib ber!

Bolam! Men harbiy bo'lib Vatan nima,  
sog'inch nima, yaqinlar qadri qanday  
bo'lishini anglab yetdim. Sen boshingni  
baland ko'tarib, mag'rur yur. Chunki bu  
ovozi eshitayotganingda otang jasorati  
mangu mard o'g'lonlar qatoridan joy olgan  
bo'ladi. Er yigitning eng katta baxti uning  
vatanparvarligidir. Bolam, men hamisha  
yoningdamon, meni unutma!"

Bu uning oxirgi so'zlari edi.

Ayol dod soldi, ovozini boricha baqirdi.  
Ammo... Qani endi, erining udan chiqib  
ketayotganidagi oxirgi iliq tabassumini  
yana ko'ra olsa! Ammo endi kech edi. Bu  
unga umrbod armonga aylandi.

Hurmatli harbiy xizmatchilarining  
ayollar! Har tong eringiz xizmatga harbiy  
libos kiyib, Vatan himoyasiga ketyaptimi,  
uning ko'zlariga qarang, uni "Eson-omon  
qaytib keling", deb duo qiling! Xizmatga  
shirinso'z bilan kuzating! Mulohaza  
qilib ko'ring, bir kun ko'rmaganingizga  
xarxasha qilib to'polon qildingiz. Ikki  
kun ko'rmaganingizga dilini og'ritib  
qarg'adingiz. Bir hafta ketgani uchun araz  
qilib, gaplashmay qo'ydingiz. Bu turmush  
o'rtog'ingiz uchun qanchalar og'ir ekanini  
bilasizmi? Axir u sizning injiqliklaringizni  
deb, Vatan oldida bergan va'dasidan  
kecholmaydi. Axir mard yigitning ori,  
g'ururi uning ichgan qasamidir.

Endi tasavvur qiling, hozir yoningizdagи  
suyanchig'ingiz, tog'ingiz har kuni sizdan  
xabar olib turadigan insoningiz, butun  
umrga sizni tashlab, hech qachon qaytmas  
manzilga – abadiylikka ketdi. Bo'ldi, u  
yo'q! Telefon qo'ng'iroqlari o'chdi, eshik  
ovozi so'ndi, qalbingizning bir burchi  
huvullab qoldi. Bu yorug' olamdan uni  
qayta topa olmaysiz! Ayting-chi, endi ham  
undan norozi bo'lib kuyinasizmi? Yo'q,  
unday qilmaysiz. Chunki o'sha lahzalarda  
qalbingizda turmush o'rtog'ingizga nisbatan  
cheksiz mehr-muhabbat borligini chuqurroq  
anglaysiz. Usiz oilangiz to'kis bo'lmasligini  
tushunib yetasiz, farzandlaringiz kamolotida  
ota tarbiyasi qanchalik beqiyos ekanini his  
qilasiz.

Aynan shu g'amli lahzalarda siz u  
bilan umrni baham ko'rganingiz, uning  
muhabbat, ehtiyoji va jasorati bilan  
nafas olganingizni yanada teranroq his  
etasiz. Shunda anglaysiz: unga yuklatilgan  
burchi og'ir bo'lganidek, u tufayli sizning  
zimmangizda ham sabr, duo va sadoqat  
burchi bo'lgan ekan. Afsuski, buni kech  
tushundingiz...

Shunday ekan, hurmatli harbiy  
xizmatchilarining ayollar! Yoningizdagи  
aziz insoningiz – faqat sizning turmush  
o'rtog'ingiz emas, balki Vatanga xizmat  
qilishni sharaf deb bilgan jasur inson  
ekanini o'z vaqtida anglab yeting. Uning  
xizmatini tushuning, qalbidagi yukni his  
qiling. Uning mashaqqatli xizmati davomida  
sizning mehringiz, muhabbatingiz, qo'llab-  
quvvatlashingiz, duoyingiz uning tayanchi  
ekanini unutmang!

**Qahramon HAYDAROV**

## Ilk ko'nikmalar

Qashqadaryo viloyatining Muborak, Mirishkor, Kasbi hamda Koson tumanlaridagi 50 ga yaqin matabning 10-, 11-sinf o'quvchilari amaliy o'q otish mashg'ulotlarida ishtirok etish uchun Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning "Muborak" dala-o'quv maydonida jam bo'ldi.



# YOSHLAR AMALIY O'Q OTISH

## mashg'ulotlarida



Dastlab yoshlar turli o'quv nuqtalarida milliy armiyamizda mavjud jangovar qurollar va texnikalar haqida, ulardan foydalananish tartibi borasida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Qurollarni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kabi mashqlardagi ishtirok etib, bu boradagi bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlashdi.

Mashg'ulotlarning qizg'in pallasida yoshlar hayajon va o'ziga ishonch bilan jangovar qurollar tomon, ya'ni otish nuqtalari sari yo'l oldi. Himoya kiyimlari kiyildi. 100 metr masofada bo'y barobar shakldagi nishonlarga qarata otish uchun o'quvchilarga o'q-dorilar tarqatildi.



Har bir o'quvchining otish mashqini nazorat qilish uchun alohida yo'riqchi-serjantlar biriktirildi. Nishonga olishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan eng asosiy ko'nikmalar yana bir bor tushuntirilib o'tilgach, o'qdonlar qurollarga o'rnatildi. Nazoratchining ko'rsatmasi bilan qurollar saqlagichi tushurildi.

O'ziga ishonch bilan nishonlarni aniq yakson qilayotgan o'g'lonlar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi singari bobokalonlarimizga munosib voris ekanliklarini yana bir bor amalda isbotladi. Mashqlarda "Bir nishon – bir o'q" tamoyili yoshlarning ong-u shuuriga singdirildi.

Otish mashqini yaxshi natija bilan tugatgan Muborak tumanidagi 6-umumta'lim matabining 10-sinf o'quvchisi O'g'abek Jo'rayev hayajonini shunday ifodalandaydi: – Men jangovar qurolni tutib turganimda cheksiz mas'uliyatni his etdim va anglab yetdimki, Vatan himoyasi haqiqiy mardlar ishi ekan. Bu kasb zalvari xuddi ana shu qurol kabi og'ir. Harbiy xizmat haqida gap ketganda, sharaf va mas'uliyat so'zlari nega doim yonma-yon kelishini aniq tushundim.

O'quvchilarning amaliy o'q otish mashg'ulotlari Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning "Nuriston" dala-o'quv maydonida ham o'tkazildi.

# Inson kamolotining TAROZISI



Insoniyat tarixi davomida qancha taraqqiyot bo'lmashin, jamiyatni chinakam rivojlanish sari boshlab boradigan kuch bu inson ma'naviyati bilan bir qatorda axloqiy yuksakligidir.

Axloq – bu qonuniyat, insonning ichki kompasi, vijdonning tovushi sanaladi. U bilan yashagan inson to'g'ri yo'lida bo'ladi, uning qadamlarida adashish bo'lmaydi. Buyuk yunon faylasufi Arastu shunday yozadi: "Qadrli ne'matlар deb men ruh, aql, javhari asl, tabii, tug'ma iste'dod kabilarni aytaman. Bular doimo qadrlanadigan, barcha uchun sharaflı bo'lgan ne'matlardir. Fazl, fazilatlar ham qadrlidir, chunki inson ular tufayli munosib, yetuk bo'ladi. Inson fazilatları tufayli go'zal (ma'naviy) qiyofaga ega bo'ladi".

Axloqiy madaniyat axloqning amaliy timsoli bo'lib, u kishilar o'rtasidagi munosabatlarni me'yorlar, tamoyil va qadriyatlar tizimi yordamida tartibga soladi. Uning markazida turuvchi asosiy qadriyat – axloq sanaladi. Bu haqda ulug' mutafakkir Alisher Navoiy o'z hikmatlarida "Elga mol-u dunyo, sharaf-shon obro' bo'lmay, hayo bilan odobgina sharaf hisoblanadi", ya'ni inson uchun mansab, martaba, boylik emas, balki hayo bilan adab sharafliroqdir, deya axloqni insonni mukarram etuvchi fazilat sirasiga kiritadi. Buni kengroq tushuntiradigan bo'lsak, odob-axloq insonning o'zini to'g'ri tuta bilishi va idora etish, kamtarligi, xushmuomaligi, baq'rikengligi, e'tiqodlligi, samimiyligi, farosatliligi, zakovatliligi, ma'rifatparvarliligini belgilaydi. Bu axloqiy qariyatlar esa ijtimoiy muhit barqarorligini ta'minlovchi va har bir insonning individual rivojlanishi uchun teng imkoniyat beruvchi hayotiy qoidalar sanaladi.

Chun onchi, barcha xalqlarda rostgo'ylik, sadoqat, kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi xislatalar axloqiy madaniyat sifatida e'tirof etiladi.

Zotan, axloqshunos olim Abdulla Sher "Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallash va ularidan o'z tajribalarida foydalish, o'z-o'zini mutazam takomillashtirib borish singari jihatlarni qamrab oladi. Shu bilan shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi hamda davlat va jamiyatdagi axloqiy darajani yuksaltirishga xizmat qiladi", deb ta'kidlashi ham bejiz emas.

**AXLOQIY MADANIYAT** tarkibiga – axloqiy bilimlar, axloqiy me'yorlar, axloqiy ong, axloqiy tajriba, qadriyatlar, e'tiqod, histuyg'u kabi komponentlar kiradi. Axloqiy bilimlar shaxsning axloqiy tamoyil va me'yorlarni chuqur bilishi, shaxs axloqiy erkinligi uning fuqarolik va kasbiy burchi bilan uzviy bog'liqligini tushunishi, o'z xulqatvori va xatti-harakatlari uchun ma'naviy javobgar ekanini anglashi, etiket qoida va talablarini bilishi va ularga riyo qilishini o'z ichiga oladi.

Zero shaxsning mazkur qadriyatlarga tayangan holda yashashi, ayniqsa axloqiy mas'uliyatni his qilishi uning o'z faoliyatida yuksak samaralarga erishishiga imkon beradi. Ya'ni insonning ma'naviy-axloqiy dunyosidagi ijobjiy tamoyillar, ularning hayotga bo'lgan yangi qarashlarini shakllantiradi va natijada umumiy jamiyatda barqarorlik, osoyishtalik va muvaffaqiyatga erishishga olib keladi. Buning uchun inson o'z axloqiy qadriyatlarini qo'llab-quvvatlab, jamiyatga foya keltirishga harakat qilishi, o'zini to'g'ri tuta bilishi va shu bilan birga har bir qaror va harakatda axloqiy masalalarni hisobga olishi kerak. Shu o'rinda axloqiy qadriyatlarga riyo qilish, turmushni yomonlik va axloqiy buzg'unchilikdan himoyalashda ham eng muhim vosita sanalishini ham yodimizdan chiqarmasligimiz kerak.

Endi axloqiy me'yorlar haqida to'xtalsak. Axloqiy me'yorlar – har bir barqaror madaniyatda umume-tirof etilgan axloqiy qoidalarning muayyan tizimi bo'lib, ularda axloqiy rivojlanish darajasi mustahkamlanadi va kishilar o'rtasidagi munosabatlari tartibga solinadi. Arastuning ta'kidlashicha, "axloqiy fazilat ("etos") so'zi odat ("eytos") so'zidan kelib chiqqan". Odat tusiga kirgan xulqatvori va xatti-harakatlari shaxs qalbi va ongiga chuqur o'mashib, inson tabiatining fazilati yoki illatiga aylanadi. **Bular – halollik, rostgo'ylik, mardlik, matonat, shijoatkorlik, hushyorlik, jasorat va h.k.** Misol uchun, shijoatkorlik shaxsning eng yuksak fazilatlaridan biri bo'lib, biror xavf-xatarga duch kelganda hech narsadan qo'rqmasligi, muvaffaqiyatsizlik oldida o'zini yo'qotib qo'ymasligi, o'zini mardonavor tutishidir. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi.

Ioda esa shaxsni axloqiy harakatlarga, turli nostandard vaziyatlarda o'zini boshqarish va konkret xatti-harakatlarni amalga oshirishga undaydi. Bu sifat ayniqsa harbiy xizmatchilarda yetakchilik qiladi. Chunki ular qat'iyat bilan har qanday to'siqni yengib, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Shuning uchun ham ular davlat, jamiyat va shaxs erkinligi va xavfsizligini ta'minlashda o'z majburiyatlarini sifatli bajarish yo'lida ioda, bardosh va shijoatkorlikdan maqsadga erishish vositasi sifatida foydalanadi va bunda albatta, bilim kasbiy mahorat, mehnat kabi qadriyat-vositalardan ham oqilonan foydalananadi.

**AXLOQIY MADANIYAT** tarkibida axloqiy ong ham yetakchi o'rinn tutadi. Uning yordamida jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlarning muayyan qoidalari o'rnatiladi. Masalan, harbiy xizmatchilar faoliyatida uning ahamiyatini tushuntiradigan bo'lsak, axloqiy ong harbiy xizmatchiga muayyan vaziyatda qanday yo'l tutish, yuqori qo'mondonlik tomonidan qo'yilgan topshiriqni qanday bajarish mumkinligini anglash imkonini beradi. Bunda albatta xatti-harakatga to'g'ri munosabatni belgilash uchun muayyan hodisangan motivi (*sababi*), maqsadi, amalga oshirish

vositiali hisobga olinadi. Negaki, aql-idrok axloqiy vaziyatdan tashqarida o'zini namoyon eta olmaydi. Shunday qilib, shaxs axloqiy madaniyatini yuksaltirishda aql-idrok, ioda va his-tuyg'uni uyg'unlashtirish taqozo etiladi. Agar aql-idroki kuchli bo'lib, ioda va his-tuyg'ulari yetarlicha ifodalananmasa, unda ko'pincha qat'iyatsiz, tomoshabin sifatida kuzatib turuvchi kishini ko'ramiz. Agar histuyg'ular oldingi o'rinda tursa, unda o'zini tuta olmaydigan, besabr kishini ko'ramiz. Eng kuchli ioda ham rivojlanmagan intellekt va tuyg'ularsiz jaholatda qoladi.

Unutmasligimiz kerakki, rivojlangan intellekt, mafkuraviy yo'nalganlik, yuksak oliyanob tuyg'ular va kuchli irodaga tayanish – harbiy xizmatchini hodisalar mohiyatiga kirib borishiga, ko'p narsalar orasidan eng muhimmini ajratib olishiga, amaliy vazifalarini muvaffaqiyatl bajarishiga, bo'ysunuvchilarini mahorat bilan boshqarishiga, ularga o'rnak bo'lishiga yordam beradi. Aksincha, nazaryada dunyoqarashi tor, xizmatga bepisand va mas'uliyatsizlik bilan yondashgan harbiy xizmatchilar ma'nан qashshoq, qanoatsiz, kuchsiz va jasoratsiz insonlar sifatida safdoshlaridan ajralib qoladi. Eng yomon esa ular jiddiy to'siqqa uchraganida nima qilishini bilmay gangib qoladi, butun umidini tayyor, standart qarorlardan foydalishga qaratadi.

Shuning uchun har bir harbiy xizmatchi nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham barkamol bo'lishi lozim. **Bu Vatan muhofazasini o'z zimmasiga olgan shaxs uchun eng asosiy tayanch nuqtalardan biridir.** Zotan, milliy armiyamiz safida xizmat qilayotgan har bir askar va ofitser o'z shaxsiy namunasi orqali yosh avlodga ibrat bo'lishi, odob-axloq, vijdon, mas'uliyat, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini amalda namoyon etishi zarur. Axloqiy tarbiya va ma'naviy komillikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan harbiy xizmatchi hech qachon adaptoladan chekinmaydi, fidoyilikdan orqaga qaytmaydi va Vatan muhofazasi yo'lida o'z burchini sharaf bilan ado etadi. Chunki u bilib turibdi: Vatanni himoya qilish bu faqat qurol bilan emas, avvalo yurak, aql va vijdon bilan amalga oshiriladigan muqaddas vazifadir.

**M. NOMURATOVA,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti**

# KUCH, G'AYRAT, SHIJOAT namoyishi

Mamlakatimiz kelajagini belgilashda shijoatli, qat'iy, maqsadni aniq qo'yib, shu asosda harakat qilayotgan yoshlarning o'rni katta. Ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi, ilm-u fan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta egallashi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun yetarlicha sharoit yaratish davr talabi.

Shu asnodda ularda Vatanga daxldorlik tuyg'usini yanada yuksaltirish maqsadida turli harbiy sport musobaqalarining o'tkazib kelinishi ularning kasbga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilishi tayin.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan ta'lrim muassasalari agentligi tizimidagi mакtablarning "Vatan tayanchi" harakati a'zolari o'rtasida "Turon yo'lbarlari" harbiy sport musobaqasining respublika bosqichi o'tkazildi.



Musobaqa jamoasi 9 shartdan iborat bo'lib, unda 15 jamoa kuch, shioat, iroda va bilim borasida bahs olib bordi. Bu shartlar ishtirokchilarning jismoniytayyorgarligi, harbiy ko'nikmalarini, zakovati va jamoaviy hamkorlik daramasini aniqlashga xizmat qildi. Har bir shart yoshlarga o'zining salohiyati, kuchg'ayrati va eng muhimmi, Vatanga sadoqatini namoyon etish imkonini berdi.

Bahslar davomida ishtirokchilar yuksak shioat va fidoyilik bilan harakat qilib, o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etdi. Har bir ishtirokchi g'oliblik uchun astoydil harakat qildi, biroq musobaqa faqat bitta g'olib jamoani aniqlaydi.

Nihoyat, hayajonli damlar yetib keldi.

Dastlab musobaqa shartlarida alohida ko'rsatkichlarga erishgan o'quvchi-yoshlar va jamoalar taqdirlandi. Unga ko'ra, eng yaxshi sportchi, kamonchi, mohir mernan singari yakkalik nominatsiyalari bilan hamda eng chaqqon, bilimdon, uyushgan jamoalar



diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Andijon viloyati Muhammad Yusuf nomidagi ijod matabining "Sohibqiron" jamoasi musobaqaning mutlaq g'olibi deya topildi.

Kubok egalari diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan birlashtirilgan sayohat yo'llanmasiga ega vaucherni ham qo'lga kiritdi.

Jarayonlarda munosib ishtiroki bilan yodda qolgan Sirdaryo viloyati Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod matabi jamoasi 2-o'rinni, Farg'ona viloyati Erkin Vohidov nomidagi ijod matabi jamoasi faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Madina ODILJONOVA:

- Biz Andijon viloyati Muhammad Yusuf nomidagi ijod matabining "Sohibqiron" jamoasi "Turon yo'lbarslari" harbiy sport musobaqasida faxrli 1-o'rinni egalladik. Taassurotlarimiz a'lo... Musobaqa nafaqat bilimlarimizni sinab olish, balki tanlov ishtirokchilari bilan do'stona aloqalarni o'rnatishimizga zamin yaratib bergani bilan ahamiyatli bo'ldi. Ushbu musobaqaning yakkalik bahslarida "Umum qo'shin himoya vositalarini kiyish" shartida shaxsan ishtirok etdim va o'z yo'nalishimda yuqori natijani qayd etdim. Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti musobaqa mezboni sifatida tanlanishi esa bizni judayam quvontirdi. Sababi mana shu vaqt mobaynida biz, yoshlar harbiy hayot tarzi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. Saf tayyorgarligi sharti jarayonlarning esda qolarlisi bo'ldi. Bu shartda jamoamiz bilan hamjihatlikda harakat olib borish ko'nikmalarini o'zlashtirdik.

Asrorbek MUXTOROV:

- Turnikda tortilish shartida ishtirok etdim va 25 ta natijani qayd etib, umum jamoasi hisobida 2-o'rinni egalladim. Albatta, bu men uchun yaxshi natija va esda qolarli bosqich bo'ldi, deb aytta olaman. Musobaqa shartlarini jamoamiz bilan uyushqoqlik bilan boshladik. Jismoniy va ma'naviy-ma'rifiy bosqichlarni zo'r g'ayrat va shioat bilan bajardik. Jarayonlarning yakuniy bosqichiga qadar barcha jamoalar g'oliblik uchun astoydil harakat qilgani sababli ishtirokchilarning to'plagan ballari orasidagi farq katta emas edi. So'nggi - "Temur tuzuklari" bilimdoni sharti esa jamoamizni g'oliblik shohsupasiga olib chiqdi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,  
"Vatanparvar"**

## Jahon kubogi



Belarus Respublikasi poytaxti Minsk shahrida sportning kemamodel turi bo'yicha jahon kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi.

## O'zbekiston championati

Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida joylashgan mototrassada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan motokross bo'yicha O'zbekiston ochiq championati va birinchiligining uchinchi (final) bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 80 dan ziyod sportchi birinchilikda "65 sm<sup>3</sup>", "85 sm<sup>3</sup>", "125 sm<sup>3</sup>" hamda championatda "125 sm<sup>3</sup>", "500 sm<sup>3</sup>", "ChZ", "500 sm<sup>3</sup>", "750 sm<sup>3</sup>", "Faxriylar B 60+", "Faxriylar A 51-59" sinflarida sport mototsikllarida bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqalar quyidagi natijalar bilan yakunlandi.



## O'zbekiston birinchiliginining uchinchi bosqichi (umumjamoा hisobida):

- 1-o'rin: Buxoro viloyati;
- 2-o'rin: Namangan viloyati;
- 3-o'rin: Toshkent shahri jamoalari.

## O'zbekiston championatining uchinchi bosqichi (umumjamoा hisobida):

- 1-o'rin: Toshkent viloyati;
- 2-o'rin: Buxoro viloyati;
- 3-o'rin: Toshkent shahri jamoalari.

## ENG YAXSHI MOTOKROSSCHILAR ANIQLANDI

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, O'zbekiston championati va birinchiligining final bosqichi g'oliblari aniqlandi.

## O'zbekiston birinchiliginining final bosqichi (umumjamoा hisobida):

- 1-o'rin: Buxoro viloyati;
- 2-o'rin: Navoiy viloyati;
- 3-o'rin: Sirdaryo viloyati jamoalari.

## O'zbekiston championatining final bosqichi (umumjamoा hisobida):

- 1-o'rin: Toshkent viloyati;
  - 2-o'rin: Buxoro viloyati;
  - 3-o'rin: Toshkent shahri jamoalari.
- G'oliblik va yuqori o'rnlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

## Ma'naviyat



## UCH AVLOD UCHRASHUVI



9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan qator ma'naviy-ma'rifiy tadbir va davra suhbatlari o'tkazilmoqda.

Buxoro shahri o'quv sport-texnika klubni tomonidan tashkil etilgan uch avlod uchrashuvida Qurolli Kuchlar faxriylari, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi vakillari, tashkilotning mehnat faxriylari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, harbiy xizmatchilar va o'quvchilar ishtirok etdi.

Tadbirni "Vatanparvar" tashkiloti Buxoro viloyati kengashi raisi Rustam Bayozov olib berib, yig'ilganlarni qutlug' sana bilan tabrikadi va tashkilot

tarixi hamda bugungi kundagi faoliyati to'g'risida qisqa ma'lumot berib o'tdi.

So'zga chiqqan Qurolli Kuchlar va mehnat faxriylari yoshlarga o'z hayotlarida bo'lib o'tgan qiziqarli voqealar, mashaqqatlar va nuroniylik paytida ko'rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqida so'zlab berdi. Muloqot chog'ida yoshlar mehnat faxriylariga o'zlarini qiziqitrgan savollar bilan murojaat qilib, javob oldi.

Harbiy xizmatchilarining qo'ljangi chiqishlari va viloyatning yosh

xonandalari tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar ishtirokchilarga ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Tadbir doirasida yoshlar uchun "Vatanparvar" tashkiloti avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kursi va sport sekiyalarida ekskursiya uyuştirildi, pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha kichik musobaqa ham tashkil etildi.

Uchrashuv so'ngida tashkilot bilan faol hamkorlik qilib kelayotgan idoralar vakillariga tashakkurnomalar topshirildi.

E'zoz



# XOTIRALAR

## MARDLIK DARSIDI

9-may – Xotira va qadrlash kuni yurtimizda yuksak ehtirom va mehr-muruvvat ruhida nishonlanadi. Bu sana nafaqat tarix, balki vijdon, saboq va hayot darsidir. Ayniqsa, Ikkinci jahon urushi faxriylari hayoti, ularning boshdan kechirgan og'ir yillari, sabr-toqati yoshlari uchun chinakam ibrat maktabidir.

Bayram arafasida Termiz davlat universitetining bir guruh mas'ullari Ikkinci jahon urushi faxriysi Shohimardon Hamroyevning xonadonida bo'ldi. Shohimardon ota holidan xabar olindi, esdalik sovg'alar topshirildi, u kishining xotiralari tinglandi.

Otaxon urushga 18 yoshida jo'nagan. Oradan qariyb bir asr o'tsa-da, kechgan lahzalarni hech

unutmaganini, har bir voqeа, har bir jarohat, har bir yo'qotish haligacha yuragini tilkalab turishini aytar ekan, otaxon urush xotiralarini ko'zda javdiragan yoshlari bilan yodga oldi.

Shohimardon ota duoga qo'l ochar ekan, bugungi yoshlarni bilim olishga, tinchlikning qadriga yetishga chorladi. Vatanga sadoqatli, halol, vijdonli bo'lishlarini ta'kidladi.

Xotira va qadrlash kuni o'tmishni unutmaslik, tinchlikni qadrlash, yosh avlodga tarixiy haqiqatni yetkazishdir. Otaning hikoyalari bugungi tinch hayotimizning qanday mashaqqatlar evaziga bunyod etilganini yana bir bor eslatdi.

**Jamshid NAZAROV,**  
Termiz davlat universiteti  
O'zbek filologiyasi fakulteti  
tyutori



Zakovat

Muloqot

Qadr

## BILIMLAR SINALDI

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Urganch harbiy prokuraturasи tomonidan Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyda "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi.

Unda Xorazm viloyati kuch tuzilmalari tizimida xizmat qilayotgan yosh harbiylari o'zaro bilimlarini sinab ko'rdi. Qizg'in bahslarga boy o'tgan aqliy bellashuvlar yakunida g'oliblarga esdalik sovg'alar topshirildi.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlari ishtirokida Yangiariq tumanida yashovchi Ikkinci jahon urushi qatnashchisi 102 yoshli Amin bobo Matniyazov holidan xabar olindi.

**Adliya podpolkovnigi Umid NIZAMOV,**  
Urganch harbiy prokurori

Mamlakatimizda tinchlik yo'lida halok bo'lganlar xotirasini abadiylashtirish alohida e'tiborda, ayni paytda tinch va farovon yurtimizda Vatanimiz nufuzini yuksaltirish, yosh avlodni ona Vatanimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan faxriylar hamisha ehtirom va e'zozda.

## EHTIROM

Ular singari 104 yoshda umrguzaronlik qilayotgan Ikkinci jahon urushi qatnashchisi, Boysun tumani Temir darvoza mahallasida yashovchi Shohimardon bobo Hamroyev xonadoni bugun Termiz harbiy prokururasi, Janubiy operativ qo'mondonlik vakillari va bir guruh yoshlari bilan gavjum.

Otaxon o'z hayotiy kechinmalarini tilga olar ekan, buyuk ne'mat – tinchlik va osoyishtalikning qadri, bugungi farovon kunlar tinchlik yo'lida kurashgan, kerak bo'lsa, aziz jonini baxshida etgan ajdodlarimizning jasorati va qahramonliklari mahsuli ekanini to'linanib so'zladi.

Samimi yulduz olam-olam taassurotlarga boy bo'ldi.

**Adliya polkovnigi Sherzod MIRZAYEV,**  
Termiz harbiy prokurori

Yo'qlov

## TINCHLIK YO'LIDAGI qahramonlik unutilmaydi

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurururasи tomonidan ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Unda Qurolli Kuchlar faxriylari, shuningdek Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirlar, Milliy gvardiya, Qorovul qo'shinlaridan jalb etilgan yosh harbiylar hamda o'quvchilar ishtirok etdi.

Jarayonda Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz, mohir sarkardalar va jadidlar jasorati yodga olindi.

So'ngra "Shon-sharaf" davlat muzeyida kichik guruhlarga bo'lingan holda Harbiy prokuratura xodimlari tomonidan faxriylarga, yosh harbiylar va o'quvchilarga mavjud eksponatlar, shu jumladan har bir qo'shin turi bo'yicha tarixiy ma'lumotlar tanishtirildi.

Shu bilan birga, muzeydagi prokuratura burchagida Ikkinci jahon urushida jasorat va mardlik namunalarini ko'rsatgan prokuratura organlari xodimlari, ularning o'sha davrdagi vazifalari hamda faoliyati haqida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurururasи, Qurolli Kuchlar akademiyasi va Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospital vakillari bir guruh o'quvchi-yoshlari ishtirokida Ikkinci jahon urushi faxriylari – Natalya Spivak va Akmal bobo Akromov holidan xabar oldi.

Muloqot davomida qahramonlarimizning O'zbekiston xalqining tantiligi, bag'rikengligi, jasorati, matonati va qahramonligi haqidagi fikrlari o'quvchi-yoshlarning bu boradagi bilim va tasavvurlarini yanada boyitdi.

O'quvchilar va yosh harbiylarning Vatan haqidagi qo'shiqlari yo'qloviga chinakam bayramona ruh bag'ishladi.

**Adliya podpolkovnigi G'iyo'siddin RAXMONOV,  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi**

Qadr

## AVLODLARGA IBRAT

Qarshi harbiy prokurururasи tomonidan "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lida qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida "Ajdodlarimizning jasorati avlodlarga ibrat" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda Qashqadaryo viloyati nuroniylar markazi, Janubiy-arbiy maxsus harbiy okrug Faxriylar kengashi, Yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi viloyat tuzilmalari hamda Milliy gvardiya boshqarmasi vakillari, Harbiy aviatsiya instituti kursantlari, Prezident maktabi o'quvchilar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Jarayonda yurt taraqqiyoti, osoyishtaligi va farovonligi hamda mudofaasi yo'lida jasorat ko'rsatgan ajdodlarimiz xotirlandi, e'tirof etildi.

Muloqot o'quvchi-yoshlardagi vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlashdagi tarbiyaviy roli bilan ham muhim ahamiyat kasb etdi.

**Adliya polkovnigi Jahongir ASHUROV,  
Qarshi harbiy prokurori**

## Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

# TIZIMLI ISHLAR

## SAMARASI



**Keyingi yillarda  
O‘zbekiston Respublikasi  
mudofaasiga ko‘maklashuvchi  
“Vatanparvar” tashkilotining  
Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi kengashi  
tasarrufidagi Amudaryo  
tumani o‘quv sport-texnika  
klubida yoshlarning  
jismonan va ma’nan  
yetuk bo‘lishiga  
muhim ahamiyat  
qaratib  
kelinmoqda.  
Shu bois ayni  
maqsadga xizmat  
qiluvchi chora-  
tadbirlarning izchil  
ijrosini ta’minlash yuzasidan  
muayyan ishlar amalga  
oshirilmoqda.**

Xususan, klubda ayni paytda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash borasidagi ishlar tizimli, bosqichma-bosqich va samarali tashkil etilgan. Shu maqsadda tumanning eng chekka ovullarida ham aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash bo'yicha "Vatanparvar" tashkiloti mening tanlovim!", "Ochiq eshiklar kuni", "Uch avlod uchrashuvi" kabi tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda.

Xususan, Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tuman hokimligi,

mudofaa ishlari, Yoshlar  
ishlari agentligi, Ma'naviyat  
va targ'ibot markazi tuman  
bo'limlari bilan hamkorlikda  
“Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi  
yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!”  
mavzusidagi tadbir ham shular sirasida

mavzusidagi tadbir ham shular sirasidan.  
- O'tkazilayotgan bunday tadbirlarda qatnashchilarga boy hayotiy tajribaga ega nuroniylar va faxriylar Ikkinchi jahon urushining sitamli xotiralaridan so'zlab berdi, - deydi O'STK boshlig'i Azizbek Ismailov. - Keksa avlod vakillari har birimiz



Vatan ravnaqiga sidqidildan xizmat qilishimiz, uning tinchligi va osoyishtaligini ko'z qorachig'imizdek asrashimiz lozimligini ta'kidladi. Albatta, bu kabi tadbirlar natijasida yoshlar qalbida harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari shakllantirilmogda.

Shu kunlarda klubda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda klubda "Havo miltig'idan o'q otish"

“Yozgi biatlon”, “Avtoralli” kabi seksiya va to‘garaklar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu to‘garaklarda o‘ttiz nafardan ziyyod iqtidorli yosh muntazam shug‘ullanib kelmoqda. O‘z navbatida, avtoralli bo‘yicha bir necha bor O‘zbekiston championi bo‘lgan Baxtiyor Saidov, Sanjar Atajanov singari sportchilarimiz qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ular nufuzli musobaqalarda klubimiz sharafini munosib ravishda himoya qilib kelmoqda. O‘quv sport-texnika klubi tomonidan 2 ta tuman hamda klub musobaqasi o‘tkazildi. Ularda yuz nafardan ortiq o‘quvchi-yosh bellashdi.

Ayni paytda mazkur dargohda xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida ham yaxshi natijalarga erishilyapti. Klubda avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlari belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilgan. Mashg'ulotlarning ilg'or zamonaviy tajriba va innovatsion usullardan foydalangan holda olib borilishi o'zining ijohiy samarasini bermogda.

Akbar ALLAMIBODOV

## Oila davrasida

Turk yozuvchisi Alishon Qapaqliqoya nomini o'zbek o'quvchilari yaxshi biladi, deb aytolmayman. Chunki uning o'zbek adabiy tiliga chevirlgan asarlarini ko'rmasidim. Turk tilini birozgina bilsam-da, yozuvchining birorta hikoyasini asliyatda o'qiganim yo'q. Shunday ekan, u haqda xuddi biladigandek gapirishim joizmikan?

# OLAM MUHABBATDAN

## YARALIGAN

Bilasizmi, yillar o'tishi bilan ayrim o'zbekona odoblarimizni qabul qilgim kelmay qolyapti. Shulardan biri ota-onal oldida farzandingni erkatalish. "Hay, otangning oldida og'zingni to'ldirib "o'g'lim" deyaverma", "Qo'lingni do'mpaygan qorning ustiga qo'yaverma hadeb, ko'ring, shundoq katta ish qilib qo'yanman, degandek bo'lasan". "Bular onaning oldida ham bolasini "onam" deb erkatalaydi.." "Bir bola faqat senlarda bormi, muncha yalab-yulqading, birov bor ham demaysan?"

Qiziq, bolani kattalarning ko'zi tushmaydigan joyda erkabal-suyish kerakmi? Nega eng samimi, yurakdan chiqadigan tuyg'ular uchun iyamanish kerak?! Farzandimizni sevib, quchib erkulasak, totli so'zlar aytib, ardoqlasak, mehrning javobi ham mehr bo'ladi-ku!?

Bolalarini eng go'zal so'zlar bilan erklang, u sevgini his qilsin, bo'yi, ko'ksi tog'dek o'ssin. Sevgi qo'rquvni aritadi, kemtiklik, alamzadalikni nari qiladi, bag'ributunlik, olijjanoblik, olamga muhabbat-la boquvchilar safini kengaytiradi.

Inson har qanday yoshda sevgiga tashnadir, go'daklar inchunin.

Nega bolaga muhabbatdan so'z ochdim, bilasizmi? Yuqorida nomini tilga olganim adib Alishon Qapaqliqoyani ijtimoiy tarmoqlarda tanidim. Bolaligining g'amgin xotirasini o'qidim, uchrashuvlarda ham shu xotirani eslaganida kap-katta kishining o'pkasi to'lib, yig'laganidan mutaassir bo'ldim. Ilk marta tinglaganimdayoq o'quvchilarga ilingim keldi, o'zbek adabiy tiliga chevirsammi, deb o'yladim. Ammo men bu qayg'uli xotirani boricha o'quvchiga yetkaza olamanmiyo'qmi, yozuvchining tinglovchiga, o'quvchiga aytmoqchi bo'lgan asl maqsadini anglatu olmasam-chi, deb ikkilangan edim. Yo'q, bu hikoya men kabi boshqalarini ham tuyg'ulantirgan ekan. Shoolim Shomansurov tomonidan o'zbek adabiy tiliga o'girilgan ekan.

### QORA SHIM HIKOYASI

Men 1962-yilda tug'ilganman. Bizning bolaligimizda "bor" degan gap yo'q edi, "yo'q" bor edi. Nima xohlasak, "yo'q" degan javob eshitardik. Yo'qlik zamonida katta bo'ldik.

Nima istasak, yo'q. Masalan, otamga, "shim olib bering", deyman. U: "yo'q", deydi. "O'yinchoq olib bering", deyman, "O'zing yasab ol", derdi. Loydan o'yinchoqlar yasar edim. Otamning eski kostyuming cho'ntagini kesib, ichiga yung to'ldirib, koptok yasardim. O'shani to'p qilib

o'ynar edim. Singlim ham qo'g'irchoqlarini o'zi yasardi...

Shuning uchun bizning naslimizda bir narsaning qadrini bilish degan narsa bor.

Bir kuni otam so'radi:

- Sizga shim olib kelaymi?

Bilasizmi, buni eshitish biz uchun qanday quvonchli edi?

Biz, uch aka-uka qo'limizni dahanimizga tirab, xayol sura boshladik. Zo'r-a? Qishloq raisining o'g'li kiyadigan shidman biz ham kiyamiz...

Men uchinchi sinfda o'qir edim. Ukam birinchida edi. Keyingisi olti yosh edi. Shunday xayollar sura boshladikki...

Bizning umidimiz o'sha avtobus. Otam shu avtobusda bozordan qaytishi kerak edi.

Qishlog'imizda elektr yo'q, televizor yo'q. Dunyodan xabarimiz yo'q. Onam bobomning gulli eski to'nini buzib bizga shim tikib berar edi...

Ukam dedi:

- Senga qanaqa rangidan olib kelarkin?

- Qora.

- Meniki moviy rang bo'lsa edi.

- Nega? - dedim.

- Sen gulli to'n bilan maktabga borgansan-ku. Men esa shidma maktabga boraman.

Keyin dedi:

- Otam "shahar poyabzali" dan ham olib kelarmikin?

Men:

- Qora kalish olib keladi, - dedim.

Shu payt changitib avtobus ko'rindi. Bizning umidimiz, bizning kutganimiz o'sha avtobus. Otam ko'rindi...

Paketlarni ocha boshladi. Menga bir qora shim. Oq yoqali qora ko'yak va bir rezina kalish chiqardi. Keyingi ukamga ham menga nima olgan bo'lsa, shundan bir xil...

Havas bilan kutgan kichik ukam Ra'fat paketlarni olib qaradi, lekin unga hech narsa yo'q edi. Otamga umid bilan termildi.

- Menga-chi?

- O'g'lim, senga keyingi safar borganimda olib kelaman.

Ra'fatning lablari burilib yig'lab yubordi. Xonadan chiqdi. Otamning ko'zlarida yosh qalqdi.

Kechki payt dasturxon atrofiga o'tirdik. Jimjit. Hech birimiz gapira olmaymiz. Faqat ukamning ovozi keladi. Xo'rsinib-xo'rsinib, bolalarcha piq-piq yig'laydi...

Men ertalab maktabga otlandim.

- Vuyyy chiroylilagini! Sizga juda yarashibdi. Bir marta kiyib ko'rsam maylimi? - dedi havas bilan ukam.

- Yo'q, kir qilasan! - dedim men.



Ikkinci kuni ham yalindi. Ber madim. Uchinchi kuni ham so'radi.

- Bo'lmaydi.

- Sizga juda yarashadi-da. Oyoq kiyimingiz bilan yanada ko'proq yarashadi. Menga ham yarashsa kerak.

- Senga uzun keladi.

- Pochasini qayrib olaman.

- Yo'q, kir qilasan!

- Gilamning ustida kiyaman, - dedi.

- Oynaga bir qarab olaman, bo'ldi.

- Bo'pti. Ertaga juma. Maktabdan kelganimda, besh daqiqqa kiyib ko'rasan.

Ra'fat sevinib ketdi.

Kechqurun uch aka-uka bir qator bo'lib cho'zildik. U meni turtadi.

- Uxlamadingmi? Men uxlay olmayapman. Ertaga shimingni kiyib ko'raman...

Ertalab maktabga ketayotganimda u ham turgan edi.

- Bugun ertaroq kel, xo'pmi? Men seni eshkining oldida kutib turaman, - dedi.

Men o'qishga ketdim...

Uchinchi soat edi. Eshik ochilib, sinfga mudir kirdi. O'qituvchining oldiga kelib, uning qulog'iga bir narsalar dedi. O'qituvchimning negadir rangi oqardi. Menga qarab:

- Alishon o'g'lim, uyingga bora qolasanmi? Otang seni chaqirayotgan ekan, - dedi.

Men o'zimcha: "Ukam qo'ymay otamni ko'ndirgan bo'lsa kerak, shimni kiyish uchun. Dars tugashiga ham sabri chidamabdi-da", deb o'yladim.

Narsalarimni yig'ishtirib, maktabdan chiqdim. Qishloq odamlari ham bizning uyimiz tarafga ketishar edi. Ko'chaning boshiga keldim. Ukam eshikda kutaman, degandi, negadir ko'rinnadi. Hovliga kirdim. Butun qishloq odamlari hovlimizda edi. Ichkaridan onamning aychanchi yig'lagan ovozi eshitildi. U o'zini yerga otib to'lg'anar edi.

- Ra'fatni bering menga! Bolajonimni bering, qo'zimni bering...

Bilsam, qishloqdagi keksa bir amaki yangi olgan traktorida uyimiz oldidan

o'tayotganida ukamni ko'rmay qolibdi. Ukam traktorning ostida qolib, o'sha yerda jon beribdi...

Ishongim kelmasdi... Men ukamga shimimni berib turadigan kun u o'lgan edi...

Otam o'zi mehr ko'rмагани uchun bizga ham mehr berishni bilmadi... Aslida, bizni juda yaxshi ko'rardi. Ammo bizni quchoqlab erkalamas edi. Bag'riga bosolmas edi. Bilasizmi, o'sha kuni nima bo'ldi?

Mayit yuvilib kafanga o'ralar ekan, otam: "Uni men olaman", dedi. Ukamni quchog'iga oldi va yig'lamsirab, shunday dedi:

- Ra'fat, men seni mozorga emas, bozorga olib borib, shim olib bermoqchi edim. O'g'lim, tur, boraylik...

Men yig'lar edim.

Otam bu so'zlarni koshki ukam tirikligida aytganida edi... Biz otamning shunday mehr bilan gapirishlarini juda xohlardik. Ammo biz hech qachon eshitmagan bu so'zlarni ukamga, u eshitmaydigan bir vaqtida baqirib, faryod qilardi...

\*\*\*

Bugun bolalar bizdan topa olmagan narsalarini telefonlaridan qidiradilar.

Bolalarimizni nopok yo'llarga boshlamoq niyatida ko'chalarda payt poylagan insonlar ota-onalaridan ko'ra ko'proq kulib muomala qildilar.

Men o'lkamni, oilamni, ayolimni, bolalarimni yaxshi ko'raman...

Men har yili anjumanlarga boraman. Bu yil qizim og'ir xasta bo'ldi. Endi hech qayoqqa bormayman. Uning yonidaman. Fursat borida uni yaxshi ko'rismiň aytaman...

\*\*\*

Alishon Qapaqliqoyanining xasta qizi ham olamdan o'tdi.

Olis bolalikda kechgan achchiq xotirani u ko'p bora so'zlagan, yozgan.

Qissadan hissa shuki, farzandlariningizni seving, bilaman, hech kim farzandingizni siz kabi seva olmaydi! Bu sevgini baralla aytishdan tortinmang, ularga vaqt ajrating, yonida bo'ling. Zero huzur sevgi to'la oildadidir.

**Inobat IBROHIMOVA tayyorladi.**

Diqqat,  
tanlov!

# “JADIDLARNING MA’NAVIY QAHRAMONLIGI”



Jadidchilik Turkiston milliy-ozodlik harakatining mafkurasi, o’lka xalqlarining mustaqillik va ma’rifatparvarlik g’oyasi sifatida shakllanib, jadidlar millatni zamonaviy taraqqiyot yo’liga olib chiqish, milliy davlat buniyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurishni maqsad qilgan edi. Bugungi kunda O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jadidlar, xususan milliy-ozodlik harakatining buyuk namoyandasini Mahmudxo’ja Behbudiyning g’oyalari asosida milliy o’zlikni anglash, Vatanimizning qadimiylari va boy tarixini o’rganish orqali fuqarolar, qolaversa harbiy xizmatchilarda milliy ruhni, vatanparvarlik tuyg’usini kuchaytirishni davr talab qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi “Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamaot arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo’ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to’g’risida”gi qarori ijrosi asosida O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti “Vatanparvar” birlashgan tahririyyati olimlar, yozuvchi va professional ijodkorlar, jurnalistlar, harbiy xizmatchilar, respublika oliy va oliy harbiy ta’lim muassasalarini mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda nashrlarimiz o’quvchilari o’rtasida ma’rifatparvar bobolarimizning hurriyatga erishish yo’lidagi ibratli hayotini targ’ib qilish, g’oyalarni harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari, yoshlar ongiga singdirish, adabiy-estetik tafakkurini shakllantirish, ularda milliy ruh, g’urur va iftixon tuyg’ularini kuchaytirish, yangi marralar sari undash maqsadida “Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” deb nomlangan tanlovni e’lon qiladi.

## VATANPARVAR



MUASSIS  
O’ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)  
vatanparvar-bt@umail.uz

Bosh muharrir:  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O’zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro’yxatga olingan.

Telefonlar:  
kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo’lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova  
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo’ziyeva  
Musahih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-5942  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 269 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “O’zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan.

Nashri ko’satkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O’zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko’chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag’bon ko’chasi, 382-uy.



“Vatanparvar” birlashgan tahririyyati

@Vatanparvargazetasi\_bot  
“Vatanparvar” birlashgan tahririyyati bilan bog’lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



[www.youtube.com/c/UzArmiya](http://www.youtube.com/c/UzArmiya)